

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

INKLYUZIV MUHIT

**DIREKTOR HAMDA PEDAGOG KADRLAR
FAOLIYATI UCHUN**

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

TOSHKENT - 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

**DIREKTOR HAMDA PEDAGOG KADRLAR
FAOLIYATI UCHUN O'QUV-USLUBIY
QO'LLANMA**

INKLYUZIV MUHIT

TOSHKENT - 2026

“Inklyuziv muhit” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma 2026-yil 31-iyul kuni Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi huzuridagi “Inklyuziv ta‘lim va psixologiya” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashining navbatdan tashqari 3-sonli yig‘ilish bayoni bilan amaliyotda foydalanishga tavsiya etilgan.

Mualliflar:

- A.Abdug‘aniyev** – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi bosh mutaxassisi;
S.Mo‘minov – O‘zbekiston Respublikasi Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi.

Mas‘ul muharrir:

- O‘.Odiljonov** – O‘zbekiston Respublikasi Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo‘lim boshlig‘i.
D.Nurmatov – O‘zbekiston Respublikasi Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi.

Dizayner va sahifalovchi:

- N.Tog‘ayev** – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi yetakchi mutaxassisi

Taqrizchilar:

- R.To‘rayev** – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi boshqarmasi boshlig‘i;
G.Alimova – O‘zbekiston Respublikasi Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi;
U.Xudayberdiyev – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi bosh mutaxassisi.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida inklyuziv muhitni shakllantirish, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash, maxsus ta‘limdan inklyuziv ta‘limga o‘tish jarayonini tashkil etish hamda pedagogik jamoaning hamkorlikdagi faoliyati yoritilgan.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma maktab direktori, direktor o‘rinbosarlari, pedagoglar, maxsus pedagoglar, assistent-o‘qituvchilar va maktab psixologlari uchun amaliy yordamchi manba sifatida tavsiya etiladi.

MUNDARIJA

Kirish	5
--------------	---

1-bob. INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI	7
--	----------

1.1. Inklyuziv ta'limning maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari.....	7
1.2. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olish huquqi.....	9
1.3. Maktab direktorining liderlik qobiliyati, inklyuziv ta'lim sinfi o'qituvchisi, maxsus pedagog hamda yordamchi xodim (assistent-o'qituvchi)larning imidji.	11
1.4. Inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha maktab ichki hujjatlari	14

2-bob. MAKTABDA TO'SIQSIZ VA QO'LLAB-QUVVATLOVCHI INKLYUZIV MUHITNI SHAKLLANTIRISH.....	17
--	-----------

2.1. Maktabda to'siqsiz, xavfsiz va moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish.....	17
2.2. Sinf xonalari, maxsus yordam ko'rsatish xonasi va o'quv vositalarini moslashtirish.....	20
2.3. O'quvchilar o'rtasida bag'rikenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash.....	25
2.4. Ota-onalar, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikni tashkil etish	29

3-bob. MAXSUS TA'LIMDAN INKLYUZIV TA'LIMGA O'TISH VA O'QUVCHINI QO'LLAB-QUVVATLASH TARTIBI	33
---	-----------

3.1. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida o'quv-	
--	--

chining ta'lim ehtiyojini belgilash.....	33
3.2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni bir ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'tkazish.....	35
3.3. O'quvchini inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilish va rasmiylashtirish.	38
4-BOB. INKLYUZIV SINFDA PEDAGOGIK JARAYON VA MUTAXASSISLAR HAMKORLIGI	42
4.1. Dars jarayonida differensial, moslashtirilgan va korreksion yondashuvlar.	42
4.2. Fan o'qituvchisi, sinf rahbari, maktab psixologi va tibbiyot xodimi hamkorligi.....	46
4.3. Maxsus pedagogning asosiy lavozim vazifalari, malaka tavsifi va lavozim yo'riqnomasi.....	49
4.4. Yordamchi xodim, ya'ni assistent-o'qituvchining asosiy lavozim vazifalari, malaka tavsifi va lavozim yo'riqnomasi.	52
5-BOB. INKLYUZIV TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISH	55
5.1. Inklyuziv ta'lim jarayonini maktab direktori va direktor o'rinbosarlari tomonidan ichki nazorat qilish tartibi.	55
5.2. O'quvchining o'zlashtirishi, darslarda ishtirok etishi, psixologik holati va ijtimoiy moslashuvini monitoring qilish.	57
5.3. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya, "G'amxo'rlik" guruhlari, tibbiyot muassasalari va ijtimoiy xizmatlar bilan idoralararo hamkorlik.....	58
5.4. Inklyuziv muhit bo'yicha yillik tahlil, hisobdorlik va keyingi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	60
ILOVALAR	
Maxsus ta'limdan inklyuziv ta'limga o'tish bo'yicha maktab direktori harakat algoritmi.....	63
Individual ta'lim dasturi namunasi.	66

Kirish

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktabi har bir bolaning bilim olishi, rivojlanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyat yaratadigan muhitga aylanishi zarur. Inklyuziv ta'lim ana shu yondashuvning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Inklyuziv muhit faqat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni maktabga qabul qilish bilan cheklanmaydi. Bunday muhitda maktab binosi, sinf xonalari, o'quv jarayoni, pedagogik yondashuv, baholash tartibi, o'quvchilar o'rtasidagi munosabat va ota-onalar bilan hamkorlik ham bolaning ehtiyojiga mos tarzda tashkil etilishi lozim.

Eng muhimi, har bir o'quvchi o'zini maktab jamoasining to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi, kamsitilmasligi, ajratib qo'yilmasligi va qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Mazkur **“Inklyuziv muhit” nomli direktor hamda pedagog kadrlar faoliyati uchun o'quv uslubiy qo'llanma** umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv muhitni shakllantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, maxsus ta'limdan inklyuziv ta'limga o'tish jarayonini to'g'ri tashkil etish hamda pedagogik jamoaning hamkorlikdagi faoliyatini yo'lga qo'yishga qaratilgan.

Qo'llanmada maktab direktorining boshqaruv mas'uliyati, inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha ichki ishlarni rejalashtirish, to'siqsiz va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish, o'quvchini qabul qilish va hujjatlashtirish, individual ta'lim dasturi asosida ishlash, maxsus pedagog hamda assistent-o'qituvchi faoliyatini

muvofiglashtirish kabi masalalar amaliy jihatdan yoritilgan.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda maktab direktori muhim o'rin tutadi. Direktor nafaqat tashkiliy jarayonlarni boshqaradi, balki pedagogik jamoada insonparvarlik, bag'rikenglik, hamkorlik va kasbiy mas'uliyat muhitini shakllantiradi. Maktabdagi har bir xodimning inklyuziv ta'limga to'g'ri munosabatda bo'lishi, o'quvchining ehtiyojini tushunishi va unga mos yordam ko'rsatishi rahbarning tizimli yondashuvi bilan bevosita bog'liq.

Ushbu ish kitobi maktab direktorlari, direktor o'rinbosarlari, pedagoglar, maxsus pedagoglar, assistent-o'qituvchilar, maktab psixologlari va ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy yordamchi manba sifatida ishlab chiqilgan. Undan maktabdagi mavjud holatni tahlil qilish, zarur chora-tadbirlarni belgilash, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ta'lim sifatini oshirishda foydalanish mumkin.



Qo'llanmaning asosiy maqsadi maktab rahbari va pedagogik jamoaga har bir bola uchun ochiq, xavfsiz, to'siqsiz, bag'rikeng va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishda amaliy ko'mak berishdan iborat. Shu jihatdan mazkur qo'llanma inklyuziv ta'limni maktab hayotining ajralmas qismiga aylantirishga xizmat qiladi.

1-BOB. INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY VA TASHKILIIY ASOSLARI

1.1. Inklyuziv ta'limning maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari



Inklyuziv ta'lim – bu har bir o'quvchining individual xususiyati, rivojlanish imkoniyati, ehtiyoji, ijtimoiy holati va sog'lig'idan qat'i nazar, sifatli ta'lim olishi uchun teng sharoit yaratishga qaratilgan ta'lim yondashuvidir.

Mazkur yondashuvda maktab faqat bilim beruvchi muassasa sifatida emas, balki har bir bola o'zini xavfsiz, qadrlangan, qo'llab-quvvatlangan va maktab jamoasining to'laqonli a'zosi sifatida his qiladigan ijtimoiy-pedagogik muhit sifatida qaraladi.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – barcha bolalar uchun ta'lim olishda teng imkoniyat yaratish, ularning individual xususiyatlari, oldingi ta'lim yutuqlari, tili, madaniyati hamda oilaviy-ijtimoiy holatidan qat'i nazar, ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat. Bu yondashuv alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni boshqa bolalardan ajratish emas, balki ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda umumiy ta'lim jarayoniga qo'shilishini, ijtimoiy moslashuvini va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida inklyuziv ta'limning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun to'siqsiz va moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, maxsus vosita va metodlardan foydalanish, zarur hollarda maxsus pedagog va

yordamchi xodim, ya'ni assistent-o'qituvchini jalb etish orqali sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdir.

Bunda asosiy e'tibor o'quvchining faqat darsda ishtirok etishiga emas, balki uning jamiyatga moslashuvi, tengdoshlar bilan muloqoti, o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi va mustaqil hayotga tayyorlanishiga qaratiladi.



Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning

maqsadi - ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda mu-

vaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

barcha o'quvchilar uchun kamsitishni istisno qiladigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida bag'rikenglik va hamkorlik madaniyatini shakllantirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning aqliy, ijtimoiy, emotsional-irodaviy va bilish faoliyatini rivojlantirish;

davlat ta'lim standartlari asosida o'quv dasturlarini o'zlashtirishga imkoniyat yaratish;

ota-onalarga maslahat, metodik va psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish.

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham inklyuziv ta'lim ta'limdan chetda qolish xavfi mavjud bo'lgan barcha bolalarni qamrab olish, ularga sifatli va mos ta'lim berish, maktab muhitidagi to'siqlarni bartaraf etish hamda o'qituvchilarni zarur metodik yordam bilan ta'minlash zarurligi bilan izohlanadi.

UNESCO hisobotida inklyuziv ta'lim nafaqat nogironligi bo'lgan bolalar, balki kelib chiqishi, tili, ijtimoiy holati yoki qobiliyati sababli ta'limdan chetda qolishi mumkin bo'lgan barcha bolalar bilan bog'liq masala sifatida talqin qilinadi.

UNICEF esa inklyuziv ta'limni barcha bolalarning bir maktab

va bir sinfda o'qishi, real o'quv imkoniyatlariga ega bo'lishi va bir-biridan o'rganib rivojlanishi bilan bog'laydi.

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

tenglik va adolat;

kamsitmaslik;

bolaning manfaatlarini ustuvor qo'yish;

individual yondashuv;

to'siqsiz va xavfsiz muhit;

pedagogik moslashuvchanlik;

ota-ona bilan hamkorlik;

mutaxassislararo hamkorlik;

doimiy monitoring va qo'llab-quvvatlash.

Ushbu tamoyillar maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni faqat qabul qilish bilan cheklanmaydi, balki ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, o'zlashtirishi, tengdoshlar bilan ijobiy munosabat o'rnatishi va shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maktab direktori uchun mazkur tamoyillar amaliy boshqaruv mezonini hisoblanadi. Direktor inklyuziv ta'limni tashkil etishda maktab binosi va sinf xonalarining moslashtirilishi, pedagoglarning tayyorgarligi, maxsus pedagog va assistent-o'qituvchi faoliyatining yo'lga qo'yilishi, ota-onalar bilan hamkorlik, o'quvchilar o'rtasida sog'lom munosabat va bag'rikenglik muhitining shakllanishiga mas'uldir.

1.2. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olish huquqi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi¹. Ta'lim sohasida kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi hamda davlat

¹ <https://lex.uz/docs/-5013007>

ta'lim standartlari doirasida ta'limning hamma uchun ochiqligi asosiy prinsiplar sifatida belgilangan.

Shu bois alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan har bir o'quvchi umumiy o'rta ta'lim olish, maktab hayotida teng ishtirok etish va o'z imkoniyatlariga mos sharoitda rivojlanish huquqiga ega.

Umumiy o'rta ta'lim birinchi sinfdan o'n birinchi sinfgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi hamda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi. Demak, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar ham boshqa tengdoshlari qatori majburiy umumiy o'rta ta'lim olish huquqiga ega.

Qonunchilikka ko'ra, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq, inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni ham qabul qilishga ruxsat etiladi².

Bunday o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilish ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi hamda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchini tegishli sinfga qabul qilish uchun asos hisoblanadi. Maktab

² <https://lex.uz/uz/docs/-5679836>

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan yo'llangan bolalarni qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas.

Shu sababli maktab direktori alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchining qonuniy ta'lim olish huquqini ta'minlashi, uni maktab jamoasiga moslashtirishi, zarur pedagogik, psixologik va tashkiliy sharoitlarni yaratishi, qabul jarayonini belgilangan tartibda rasmiylashtirishi hamda ta'lim jarayonida muntazam qo'llab-quvvatlash choralarini tashkil etishi zarur.

1.3. Maktab direktorining lidrelik qobiliyati, inklyuziv ta'lim sinfi o'qituvchisi, maxsus pedagog hamda yordamchi xodim (assistent-o'qituvchi)larning imidji



Inklyuziv ta'lim sharoitida maktab jamoasining kasbiy imidji faqat tashqi ko'rinish, rasmiy lavozim yoki ish tajribasi bilan belgilanmaydi.

U, avvalo, har bir bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'quvchining imkoniyatiga ishonish, muloqotda samimiylilikni saqlash, pedagogik vaziyatlarda sabr-toqatli bo'lish va kasbiy mas'uliyatni chuqur his etish orqali namoyon bo'ladi. Bunday imidj maktabda ishonch, xavfsizlik, bag'rikenglik va o'zaro qo'llab-quvvatlash muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Maktab direktori inklyuziv ta'lim jarayonida boshqaruvchi shaxs bo'lish bilan birga, maktab jamoasiga yo'l ko'rsatuvchi lider hisoblanadi. Uning liderlik qobiliyati pedagogik jamoani yagona maqsad atrofida birlashtirish, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish, mavjud muammolarni yashirmasdan hal etish va har bir xodimning vazifasini aniq belgilashda ko'rinadi. Direktor inklyuziv ta'limni alohida tadbir sifatida emas, balki maktab hayotining doimiy va ajralmas qismi sifatida tashkil etishi lozim.

Xalqaro yondashuvlarda ham inklyuziv ta'lim maktab darajasi-da amaliyotga aylangandagina o'quvchining kundalik hayotida real natija berishi ta'kidlanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, tenglik va inklyuziya bo'yicha siyosat aynan maktab muhitida resurslar, o'qitish amaliyoti va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali o'quvchilarning kundalik tajribasiga aylanadi. Shuning uchun direktorning liderligi inklyuziv muhitni tashkil etishda asosiy omillardan biridir.

Inklyuziv ta'lim sinfi o'qituvchisining imidji uning bilim berish mahorati bilan birga, o'quvchini tushunishi, dars jarayonini moslashtira olishi, nutqi, xulq-atvori, tashqi madaniyati va emotsional barqarorligi orqali shakllanadi.

O'qituvchi ozoda, sipo va kasbiga mos ko'rinishga ega bo'lishi, nutqi ravon, tushunarli va adabiy til me'yorlariga mos bo'lishi, bolalar bilan muloqotda sokin, samimiy va ishonchli ohangni saqlashi zarur. Uning har bir so'zi, yuz ifodasi va munosabati o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchiga ta'sir ko'rsatadi.

Inklyuziv sinf o'qituvchisi dars jarayonida barcha bolalarga bir xil yondashish bilan cheklanib qolmasligi kerak. U o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini, bilish imkoniyatlarini, rivojlanish darajasini, muloqotga kirishish holatini hamda individual ehtiyojlarini hisobga olishi lozim.

Bunday o'qituvchi topshiriqlarni moslashtiradi, guruhli va individual ish shakllaridan foydalanadi, o'quvchining kichik yutug'ini ham qadrlaydi va sinfda kamsitish yoki ajratish holatlari-ga yo'l qo'ymaydi.

Maxsus pedagogning imidji uning chuqur mutaxassislik bilimi, korreksion-pedagogik yondashuvi, kuzatuvchanligi va metodik yordam ko'rsatish qobiliyati bilan belgilanadi. U alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchining rivojlanish xususiyatlarini o'rganadi, o'qituvchi bilan birgalikda moslashtirilgan yondashuvlarni belgilaydi, individual ta'lim dasturi asosida ishlaydi va bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatadi. Maxsus pe-

dagog o'quvchining kamchiligini emas, uning rivojlanish imkoniyatini ko'ra oladigan mutaxassis bo'lishi zarur.

Yordamchi xodim – assistent-o'qituvchining imidji bolaning ta'lim jarayonida xavfsiz, faol va imkon qadar mustaqil ishtirok etishiga ko'maklashuvchi mas'uliyatli xodim sifatida shakllanadi. Assistent-o'qituvchi o'quvchi o'rniga vazifani bajarib bermaydi, balki unga topshiriqni tushunish, sinf faoliyatida qatnashish, harakatlanish, muloqot qilish va o'z imkoniyatini namoyon etishda yordam beradi. Uning faoliyatida ehtiyotkorlik, sabr, bolaga hurmat, maxfiylik va pedagog ko'rsatmalariga amal qilish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'limda direktor, o'qituvchi, maxsus pedagog va assistent-o'qituvchi o'zaro hamkorlikda ishlagandagina barqaror natijaga erishiladi.

UNESCO inklyuziv ta'limni barcha o'quvchilarga taalluqli yondashuv sifatida talqin qilib, ta'limdagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish, o'quv dasturi, pedagogika va o'qitish jarayonini barcha bolalar uchun moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi.



Shu jihatdan inklyuziv ta'limdagi kasbiy imidj tashqi madaniyat, nutq, xulq-atvor, pedagogik mahorat, empatiya, hamkorlik, bolaga mehr va uning rivojlanishiga ishonch uyg'unligidan iboratdir. Maktab direktori bunday imidjni butun jamoa uchun boshqaruv mezoniga aylantirishi, har bir xodim esa o'z faoliyatida "har bir bola muhim, har bir bola ta'lim olishga haqli" degan tamoyilga amal qilishi lozim.

Maxsus ehtiyojlar va inklyuziv ta'lim bo'yicha Yevropa agentligi (European Agency for Special Needs and Inclusive Education) yondashuvida ham inklyuziv maktab liderligi barcha o'quvchilarning to'liq ishtiroki, yutuqlari va farovonligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv sifatida izohlanadi.

1.4. Inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha maktab ichki hujjatlari

Inklyuziv ta'limni umumiy o'rta ta'lim maktabda to'g'ri tashkil etish uchun jarayon faqat og'zaki kelishuv yoki alohida tashabbuslar asosida emas, balki aniq ichki hujjatlar orqali rasmiylashtirilishi zarur.

Inklyuziv ta'lim sinfi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa bolalar bilan teng huquqli va birgalikda ta'lim olish shakli hisoblanadi. Shu sababli maktabda bunday sinflarni tashkil etish, o'quvchini qabul qilish, pedagogik qo'llab-quvvatlash, maxsus pedagog hamda yordamchi pedagog xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish hujjatlar asosida olib boriladi.

Maktabda inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha quyidagi ichki hujjatlar yuritilishi maqsadga muvofiq:

1. Maktab direktorining inklyuziv ta'lim sinfini tashkil etish to'g'risidagi buyrug'i.

Mazkur buyruqda inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil etilishi, mas'ul xodimlar, o'quvchining qabul qilinishi, sinf rahbari, fan o'qituvchilari, maxsus pedagog, yordamchi pedagog xodim hamda monitoring uchun

mas'ullar belgilanadi. O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

2. O'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'majildi.

Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bola uchun shaxsiy hujjatlar yig'majildi shakllantiriladi. Unda ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi, rozilik hujjatlari, qabul qilishga oid buyruq nusxasi hamda o'quvchining ta'lim jarayoniga oid boshqa zarur ma'lumotlar saqlanadi.

3. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning rozilik hujjati.

O'quvchini inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilish ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi asosida amalga oshiriladi. Shu sababli maktabda ota-onaning yozma arizasi yoki rozilik xati alohida tartibda saqlanishi lozim.

4. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi.

O'quvchining alohida ta'lim ehtiyoji, qaysi ta'lim shakliga yo'naltirilishi va unga zarur pedagogik yordam turi psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida belgilanadi. Mazkur xulosa o'quvchini inklyuziv ta'lim sinfiga qabul qilish uchun asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

5. Individual ta'lim dasturi.

Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchining imkoniyati, rivojlanish xususiyati, o'zlashtirish darajasi va qo'llab-quvvatlash ehtiyojidan kelib chiqib individual ta'lim dasturi ishlab chiqiladi. Ushbu dastur asosida o'quvchiga moslashtirilgan topshiriqlar, korreksion-rivojlantiruvchi ishlar va qo'shimcha yordam choralari belgilanadi. Individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga yordam ko'rsatish maxsus pedagoglar va yordamchi pedagog xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

6. Maktab psixologik-tibbiy-pedagogik konsiliumi yoki kengashi hujjatlari.

O'quvchilarning majmuaviy o'rganilishi, ularning rivojlanish



holati va qo'llab-quvvatlash choralarini belgilash uchun maktab direktorining buyrug'i asosida tegishli kengash tuziladi. Ushbu kengash tarkibiga direktor o'rinbosarlari, inklyuziv sinf o'qituvchilari, psixolog, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislar kiritilishi mumkin. Kengash yig'ilishi bayonnomalari, qarorlari va ijro nazorati hujjatlari alohida yuritiladi.

7. Ota-onalar bilan ishlash hujjatlari.

Inklyuziv ta'limda ota-onalar bilan hamkorlik muhim o'rin tutadi. Maktabda ota-onalar bilan suhbat bayonnomalari, maslahat berish varaqalari, pedagogik-psixologik tavsiyalar, qayta aloqa varaqalari va kelishuv hujjatlari yuritilishi maqsadga muvofiq. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat va psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish inklyuziv ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Umuman olganda, maktab ichki hujjatlari inklyuziv ta'lim jarayonini tartibli, shaffof va mas'uliyatli tashkil etishga xizmat qiladi. Har bir hujjat o'quvchining ta'lim olish huquqini ta'minlash, unga zarur pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda maktab rahbariyati tomonidan doimiy monitoring olib borish uchun amaliy asos vazifasini bajaradi.

2-bob. MAKTABDA TO'SIQSIZ VA QO'LLAB-QUVVATLOVCHI INKLYUZIV MUHITNI SHAKLLANTIRISH

2.1. Maktabda to'siqsiz, xavfsiz va moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish



Maktabda to'siqsiz ta'lim muhiti deganda o'quvchining maktab binosiga kirishi, harakatlanishi, sinf xonasida qatnashishi, o'quv topshiriqlarini bajarishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi va maktab hayotida faol ishtirok etishiga xalaqit beradigan jismoniy, psixologik, pedagogik hamda axborot-kommunikatsion to'siqlarni kamaytirish tushuniladi.

Bunday muhitda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchi yordamga muhtoj shaxs sifatida emas, balki maktab jamoasining teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilinadi.

To'siqsiz muhitning birinchi sharti – maktab hududi va binosining o'quvchi uchun ochiq va xavfsiz bo'lishidir. Maktabga kirish-chiqish joylari, yo'laklar, zinapoyalar, sinf xonalari, oshxona, kutubxona, sport zali, sanitariya-gigiyena xonalari va maktab hovlisi imkon qadar barcha o'quvchilar uchun qulay bo'lishi lozim.

Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to'g'risidagi nizomda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishi uchun zarur sharoitlar yaratish, jumladan, aravachadan foydalanadigan shaxslar uchun pandus va tutqichlar o'rnatish talabi belgilangan.

Bunda direktor maktab binosining faqat “kirish qismi” moslashtirilganligi bilan cheklanmasligi kerak. O'quvchi maktabga kimgandan keyin ham sinf xonasiga, maxsus yordam ko'rsatish xonasiga, hojatxonaga, kutubxonaga va boshqa zarur joylarga erkin yetib borishi lozim. Shuning uchun maktabda harakatlantirish yo'nalishlari keng, xavfsiz, sirpanmaydigan, ortiqcha buyumlar bilan to'sib qo'yilmagan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Zarur holatlarda tutqichlar, yo'naltiruvchi belgilar, moslashtirilgan o'rindiqlar, aravacha harakatiga qulay eshiklar va xavfsiz pol qoplamalaridan foydalaniladi.

Xavfsiz muhit faqat jismoniy xavfsizlik bilan cheklanmaydi. Inklyuziv ta'limda psixologik xavfsizlik ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchi sinfda kamsitilmasligi, ajratib qo'yilmasligi, masxara qilinmasligi va o'z holati sababli noqulay vaziyatga tushirilmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorida inklyuziv ta'lim vazifalaridan biri rivojlanish imkoniyatlari turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish ekani qayd etilgan.

Moslashtirilgan muhit o'quvchining yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanish darajasi, somatik va asab-ruhiy salomatligi hamda ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu o'quvchi uchun dars mazmunini soddalashtirish degani emas, balki ta'lim mazmuniga yetib borish yo'lini moslashtirish demakdir.

Masalan, eshitishda qiyinchiligi bo'lgan bola uchun ko'rish orqali tushunishga yordam beruvchi materiallar, ko'rishda qiyinchiligi bo'lgan bola uchun yirik shriftli yoki audio materiallar, tayanch-harakatida cheklovi bo'lgan bola uchun qulay joylashuv va moslashtirilgan stol-stul, nutqiy qiyinchiligi bo'lgan



TO'SIQSIZ MUHIT

bola uchun piktogramma yoki muqobil kommunikatsiya vositalari qo'llanilishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda bunday yondashuv ko'pincha universal dizayn va universal ta'lim dizayni bilan bog'lanadi. Bu yondashuvga ko'ra, maktab muhiti va dars jarayoni boshidanoq turli ehtiyojga ega bolalar uchun qulay qilib rejalashtiriladi.

Masalan, Portugaliya tajribasida inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning ehtiyoji va salohiyatiga javob berish, ularning ta'lim hamda maktab jamoasi hayotidagi ishtirokini oshirish jarayoni sifatida belgilangan.

Italiya tajribasida esa alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni umumiy ta'lim muhitiga qo'shish, qo'llab-quvvatlovchi

pedagoglar va mahalliy xizmatlar hamkorligini yo'lga qo'yish ustuvor hisoblanadi.

Maktabda to'siqsiz va xavfsiz muhitni yaratishda direktor quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

maktab hududi, kirish-chiqish joylari, yo'laklar, zinapoyalar va sinf xonalarining alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun qulayligini o'rganish;

pandus, tutqich, keng yo'lak, moslashtirilgan eshik, xavfsiz pol qoplamasi va qulay harakatlanish yo'nalishlarini ta'minlash;

sinfda o'quvchining joylashuvini uning eshitish, ko'rish, harakatlanish va muloqot ehtiyojidan kelib chiqib belgilash;

o'qituvchi, maxsus pedagog, yordamchi xodim va psixolog hamkorligini yo'lga qo'yish;

sinf jamoasida bag'rikenglik, hurmat, o'zaro yordam va kam-sitmaslik madaniyatini shakllantirish;

ota-onalar bilan muntazam muloqot qilib, bolaning maktabga moslashuvi va rivojlanishidagi o'zgarishlarni kuzatib borish.

Maktabda to'siqsiz muhit yaratilganda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchi darsda passiv kuzatuvchi emas, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, tengdoshlari bilan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi va jamiyatga moslashuvini yengillashtiradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, tenglik va in'kvlyuziyaga oid siyosat maktab darajasida boshqaruv, resurslar, kadrlar salohiyati, qo'llab-quvvatlash choralari hamda monitoring orqali amaliy natijaga aylanadi.

2.2. Sinf xonalari, maxsus yordam ko'rsatish xonasi va o'quv vositalarini moslashtirish

Inklyuziv ta'limda sinf xonasi barcha o'quvchilar uchun ochiq, xavfsiz va qulay bo'lishi zarur. Sinf xonasining joylashuvi, mebel tartibi, yorug'lik, tovush, o'quv vositalari, ko'rgazmali materiallar

va o'quvchining harakatlanish imkoniyati ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli sinf xonasini tashkil etishda o'quvchining faqat darsni tinglashi emas, balki savol berishi, topshiriq bajarishi, guruh ishida qatnashishi, doskaga chiqishi, o'quv materialidan mustaqil foydalanishi va tengdoshlari bilan muloqot qilishi ham hisobga olinishi kerak.

Sinf xonasida mebel va jihozlar o'quvchilarning yoshiga, bo'yiga, tana tuzilishiga va jismoniy imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim.

Aravachadan foydalanadigan o'quvchi uchun stolga yaqinlashish, o'tirish joyiga erkin kirib-chiqish va guruh ishida qatnashish imkoniyati bo'lishi kerak.

Ko'rishda qiyinchiligi bo'lgan o'quvchi doska, ekran yoki o'qituvchiga yaqinroq joylashtiriladi.

Eshitishda qiyinchiligi bo'lgan o'quvchi o'qituvchining yuz ifodasi, lab harakati va ko'rgazmali materiallarni aniq ko'ra oladigan joyda o'tirishi maqsadga muvofiq.

Diqqatni jamlashda qiynaladigan o'quvchi esa ortiqcha chalg'ituvchi omillar kam bo'lgan hududga joylashtiriladi.

Sinfdagi o'quv vositalari ham moslashtirilgan bo'lishi zarur. Bunda ko'rgazmali materiallar, piktogrammalar, jadval va rasmlar, kartochkalar, yirik shriftli matnlar, audio va video materiallar, sensor-taktil vositalar, moslashtirilgan yozuv qurollari, o'quv topshiriqlarining soddalashtirilgan yoki bosqichma-bosqich berilgan shakllari qo'llanilishi mumkin. UNICEFning inklyuziv ta'lim bo'yicha yondashuvida barcha bolalar bir maktabda va bir sinfdagi o'qishi, hech bir bola chetda qolmasligi hamda ta'lim jarayoni bolaning ehtiyojiga mos bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi.

Maxsus yordam ko'rsatish xonasi inklyuziv ta'lim tizimidagi muhim qo'llab-quvvatlovchi makon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to'g'risidagi ni-

zomni tasdiqlash haqida” buyrug‘i bilan tasdiqlangan nizomda inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar ochilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishi, rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda ularga turli ko‘rinishda psixologik yordam berish maqsadida maxsus yordam ko‘rsatish xonalari tashkil etilishi belgilangan.

Mazkur xonada maxsus pedagoglar va yordamchi xodimlar o‘quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boradi.

Xona ta’lim samaradorligi va bolalarning ehtiyojlariga mos keladigan, mustahkam, o‘tkir burchaklari bo‘lmagan jihozlar hamda o‘quv materiallari bilan ta’minlanishi lozim.

Nizomda bunday xonalar uchun ergonomik stol va stullar, interaktiv doska yoki proyektor, sensor ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi o‘yinchoq va taktil materiallar, ko‘zni charchatmaydigan yoritish, kompyuter va chop etish vositalari, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ovoz kuchaytirgichlar, javon va shkaflar, pardalar, ventilyatsiya yoki konditsioner tizimi kabi jihozlar nazarda tutilgan.

Maxsus pedagog xizmat xonasini jihozlashga qo‘yiladigan talablarda ham bunday xona alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda moslashtirilgan sharoit yaratish, korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etish va ta’lim jarayonini samarali qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Unda xona kamida 15–20 kvadrat metr atrofida bo‘lishi, pedagogik va psixologik jihatdan xavfsiz, erkin harakatlanishga qulay, yakka va kichik guruhli mashg‘ulotlar uchun zarur infratuzilmaga ega bo‘lishi tavsiya etilgan.

Maxsus yordam ko‘rsatish xonasini tashkil etishda uni shunchaki jihozlar saqlanadigan xona sifatida emas, balki aniq funksional hududlarga ega korreksion-pedagogik makon sifatida ko‘rish kerak.

Amaliy jihatdan bunday xona uch asosiy hududga ajratilishi

maqsadga muvofiq: individual mashg'ulotlar hududi, guruh mashg'ulotlari hududi hamda dam olish va tinchlantirish hududi.

Individual mashg'ulotlar hududi o'quvchi bilan yakka tartibda ishlash, nutqiy, kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi. Guruh mashg'ulotlari hududi bolalarda muloqot, hamkorlik, navbat kutish, fikr almashish va jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini shakllantiradi. Dam olish va tinchlantirish hududi esa sensor yuklamani kamaytirish, emotsional holatni barqarorlashtirish va stressni pasaytirish uchun zarurdir.

Xonada rang, yorug'lik va tovush muhitiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Juda yorqin, chalg'ituvchi yoki hissiy zo'riqishni kuchaytiruvchi ranglardan saqlanish, yumshoq va tabiiy ranglardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yorug'lik ko'zni charchatmaydigan, bir tekis taqsimlangan va zarur hollarda sozlanadigan bo'lishi kerak. Tovush izolyatsiyasi esa ayniqsa autizm spektridagi, eshitishda sezgirliги yuqori yoki diqqatni jamlashda qiynaladigan bolalar uchun muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan akustik va vizual muhit bola xotirjamligini ta'minlaydi, dars va korreksion mashg'ulotlardagi ishtirokini oshiradi.

O'quv vositalarini moslashtirishda asosiy mezon bolaning mustaqilligini oshirish bo'lishi kerak. Assistent-o'qituvchi yoki maxsus pedagog bolaga doimiy ravishda vazifani bajarib beruvchi shaxsga aylanmasligi, aksincha, bola topshiriqni imkon qadar mustaqil bajarishi uchun vosita, yo'l-yo'riq va qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorda yordamchi xodim o'quvchining o'quv-tarbiya jarayonida ishtirokini ta'minlash va individual moslashtirilgan ta'lim dasturlarini o'zlashtirishiga ko'maklashishi belgilangan.

Xalqaro tajribada sinf va maxsus yordam muhitini moslashtirishda “bola uchun alohida joy” yaratishdan ko‘ra, “barcha bolalar uchun mos muhit” yaratishga urg‘u beriladi.

Masalan, Kanada New Brunswick tajribasida inklyuziv ta‘lim alohida ehtiyojga ega bolani chetga ajratish emas, balki umumiy sinf va maktab hayotida unga zarur yordamni yetkazish tamoyiliga asoslanadi.

Finlandiya tajribasida esa maxsus yordam maktab ichida erta aniqlash, moslashtirilgan ta‘lim va o‘quvchiga yaqin xizmatlar orqali tashkil etiladi.



Shu bois maktab direktori sinf xonalari va maxsus yordam ko‘rsatish xonasini moslashtirishda quyidagi amaliy yo‘nalishlar-ga e‘tibor qaratishi zarur:

sinf xonasida o‘quvchining harakatlanishi, ko‘rishi, eshitishi, yozishi, o‘qishi va muloqot qilishiga mos sharoit yaratish;

mebel va jihozlarni xavfsiz, mustahkam, o‘tkir burchaksiz va bolalarning jismoniy imkoniyatlariga mos holda joylashtirish;

maxsus yordam ko‘rsatish xonasini individual, guruhli va tinchlantirish hududlariga ajratish;

sensor, taktil, vizual, audio va raqamli o‘quv vositalaridan foydalanish;

o‘quv materiallarini yirik, sodda, bosqichma-bosqich va tushunarli shaklda berish;

o‘quvchi uchun zarur hollarda piktogramma, vizual jadval, taymer, muqobil kommunikatsiya vositalari va qo‘shimcha ko‘rgazmali materiallardan foydalanish;

maxsus pedagog, assistent-o‘qituvchi, sinf rahbari va maktab psixologi hamkorligini aniq reja asosida yo‘lga qo‘yish;

ota-onalar bilan birgalikda o‘quvchining sinfdagi va maxsus yordam xonasidagi rivojlanish dinamikasini kuzatib borish.

Sinf xonasi va maxsus yordam ko‘rsatish xonasi inklyuziv ta‘limda bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim makondir. Sinf xona-

si o'quvchining umumiy jamoada ta'lim olishi va tengdoshlari bilan ijtimoiylashuvini ta'minlasa, maxsus yordam ko'rsatish xonasi uning individual ehtiyojlari asosida qo'shimcha pedagogik, korreksion va psixologik yordam olishiga xizmat qiladi.

To'g'ri tashkil etilgan bu ikki muhit maktabda har bir bola uchun ochiq, xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi inklyuziv ta'lim tizimini shakllantiradi.

Foydalanish uchun manba	
	O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining “Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'i
	“Umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay muhit yaratish” - ta'lim sohasidagi rahbar va pedagog kadrlar uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy qo'llanma
	Inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maxsus pedagog xizmat xonalarini jihozlashga qo'yiladigan talablar

2.3. O'quvchilar o'rtasida bag'rikenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash

Inklyuziv ta'limda to'siqsiz muhit faqat bino, jihoz yoki o'quv vositalarining moslashtirilishi bilan cheklanmaydi. Bunday muhitning eng muhim tarkibiy qismi – o'quvchilar o'rtasida bag'rikenglik, o'zaro hurmat, hamkorlik va bir-birini qabul qilish madaniyatini shakllantirishdir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola maktabda o'zini xavf-

siz, qadrlangan va sinf jamoasining to'laqonli a'zosi sifatida his qilgandagina ta'lim jarayonida faol ishtirok eta oladi.

Bag'rikenglik – bu o'quvchining boshqalardan farq qilishini tabiiy holat sifatida qabul qilish, uning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish va unga nisbatan kamsituvchi munosabatga yo'l qo'ymaslikdir. Inklyuziv sinfda o'quvchilarga “Hamma bir xil bo'lishi kerak” degan yondashuv emas, balki “Har bir bola o'ziga xos, har bir bola muhim” degan tushuncha singdirilishi lozim. Bunda farqlar muammo sifatida emas, balki sinf jamoasining tabiiy xilma-xilligi sifatida tushuntiriladi.

O'zaro hurmat muhitini yaratishda o'qituvchi va sinf rahbarining kundalik muloqoti muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining har bir o'quvchiga murojaat qilish ohangi, baholash uslubi, tanbeh berish madaniyati, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani sinf oldida noqulay vaziyatga qo'ymasligi boshqa o'quvchilar uchun namuna bo'ladi. Agar

pedagog o'quvchiga hurmat bilan yondashsa, sinf jamoasida ham unga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.



Ijtimoiy moslashuv alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining sinf jamoasiga qo'shili-shi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi, guruhli faoliyatda ishtirok etishi, maktab qoidalarini tushunishi va o'zini erkin tutishiga ko'mak-

lashuvchi jarayondir. Bu jarayon majburlash, ajratish yoki haddan tashqari himoyalash orqali emas, balki bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash, tushuntirish, rag'batlantirish va tengdoshlar bilan tabiiy muloqotga jalb etish orqali amalga oshiriladi.

Maktab direktori o'quvchilar o'rtasida bag'rikenglik va ijtimoiy moslashuvni ta'minlashda rahbar sifatida umumiy muhit uchun mas'ul hisoblanadi. Direktor pedagogik jamoa oldi-

ga inklyuziv madaniyatni shakllantirish bo'yicha aniq vazifalar qo'yishi, sinf rahbarlari, maktab psixologi, maxsus pedagog va assistent-o'qituvchi hamkorligini yo'lga qo'yishi, kamsitish, masxara qilish, chetlatish yoki bulling holatlarining oldini olish choralarini ko'rish zarur.

Sinf jamoasida ijobiy munosabatni shakllantirish uchun quyidagi amaliy yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Tushuntirish ishlari olib borish. O'quvchilarga insonlar turlicha bo'lishi, har bir bolaning kuchli tomoni borligi, ayrim tengdoshlar ko'proq yordamga muhtoj bo'lishi mumkinligi sodda va tarbiyaviy uslubda tushuntiriladi.

2. Hamkorlikka asoslangan topshiriqlar berish. Guruhli ishlar, juftlikda bajariladigan mashqlar, umumiy loyiha va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilar bir-biriga yordam berishni, fikr almashishni va birgalikda natijaga erishishni o'rganadi.

3. "Tengdosh ko'makchi" yondashuvidan foydalanish. Alo-hida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga sinfdagi mas'ul, xushmu-omala va ijobiy munosabatdagi tengdoshlardan biri ko'makchi sifatida biriktirilishi mumkin. Bunda ko'makchi o'quvchi "qa-



rovchi” emas, balki do'stona yordam beruvchi sinfdosh sifatida ishtirok etadi.

4. Kamsituvchi so'z va harakatlarga yo'l qo'ymaslik. O'quvchilar orasida laqab qo'yish, masxara qilish, nogironlik yoki rivojlanish xususiyati sababli ajratish, “u boshqacha” degan salbiy munosabatni shakllantirish qat'iyani oldi olinadigan holat sifatida qaralishi kerak.

5. Har bir o'quvchining kuchli tomonini namoyon etish. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining qiziqishi, qobiliyati yoki muvaffaqiyati sinf hayotida ko'rsatib boriladi. Masalan, rasm chizish, she'r yodlash, tartibli bajarish, texnik vositalardan foydalanish, mehribonlik yoki mas'uliyat kabi jihatlar rag'batlantiriladi.



6. Sinf tadbirlariga teng jalb etish. Bayramlar, musobaqalar, ijodiy chiqishlar, ekskursiyalar va sinf soatlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi chetda qoldirilmasligi lozim. Unga imkoniyatiga mos vazifa berilishi va jamoa ichida ishtiroki ta'minlanishi kerak.

7. Ota-onalar bilan hamkorlik qilish. Sinfda sog'lom munosabatni shakllantirish faqat maktabning vazifasi emas. Ota-ona-

lar bilan suhbatlarda farzandlarga bag'rikenglik, yordam berish, kamsitmaslik va insoniy munosabat madaniyatini o'rgatish zarurligi tushuntiriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchini sinfda qo'llab-quvvatlashda haddan tashqari ajratib ko'rsatish ham to'g'ri emas. Masalan, uni doim alohida joyga o'tkazish, barcha topshiriqlardan ozod qilish, sinf faoliyatida ishtirok ettirmaslik yoki tengdoshlaridan butunlay ajratib qo'yish uning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Qo'llab-quvvatlash bolaning mustaqilligini kamaytirmasligi, aksincha, uning o'z kuchiga ishonchini oshirishi kerak.

Maktab psixologi va maxsus pedagog sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitni kuzatib borishi, zarur hollarda sinf rahbari bilan birgalikda suhbat, trening, rolli o'yin, guruhli mashg'ulot va maslahat ishlarini tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarda empatiya, ya'ni boshqaning holatini tushunish, yordam berish, tinglash, sabr qilish va do'stona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

2.4. Ota-onalar, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikni tashkil etish

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda maktabning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda ota-onalar, mahalla va jamoatchilik bilan tizimli hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining maktabga moslashuvi, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, tengdoshlari bilan ijobiy munosabat o'rnatishi hamda o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi ko'p jihatdan oila, maktab va mahalla o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq.

Ota-onalar bilan hamkorlik, avvalo, o'zaro ishonch, hurmat va ochiq muloqotga asoslanishi kerak. Maktab ota-onani faqat ma'lumot beruvchi yoki hujjat topshiruvchi tomon sifatida emas, balki bolaning rivojlanishi uchun mas'ul hamkor sifatida qabul qilishi lozim.

Ota-ona farzandining sog'lig'i, xulq-atvori, qiziqishi, kuchli va zaif tomonlari, uy sharoitidagi ehtiyojlari haqida eng muhim ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Maktab direktori ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishda muntazam uchrashuvlar, yakka tartibdagi suhbatlar, maslahatlar, qayta aloqa varaqalari va pedagogik tavsiyalar tizimini yo'lga qo'yishi zarur. Bunda ota-onaga bolaning faqat muammolari emas, balki rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlar, kichik yutuqlar va qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ham tushuntirib borilishi kerak. Ota-ona bilan muloqotda ayblash, taqqoslash, bosim o'tkazish yoki bolaning holatini oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi bilan ishlashda ota-onalar quyidagi jarayonlarga jalb etilishi maqsadga muvofiq:

bolaning individual ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini aniqlash;

individual ta'lim dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

bolaning maktabga moslashuvi va rivojlanish dinamikasini kuzatish;

uy sharoitida bajarilishi mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi mashqlarni kelishish;

ta'lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni birgalikda muhokama qilish;

bolaning mustaqilligi, ijtimoiy ko'nikmalari va o'ziga ishonchini rivojlantirish.

Mahalla bilan hamkorlik esa o'quvchining faqat maktab ichidagi emas, balki yashash joyidagi ijtimoiy moslashuvini ham qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Mahalla vakillari, faollar,

yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodimlar va boshqa mas'ullar oilaning ijtimoiy holatini o'rganish, zarur yordam choralarini belgilash, bolaning xavfsizligi va farovonligini ta'minlashda maktab bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Bunda mahalla bilan hamkorlik bolaning shaxsiy holatini oshkor qilish yoki oilani nazorat qilish shaklida emas, balki ehtiyotkor, hurmatli va qo'llab-quvvatlovchi yondashuv asosida olib borilishi kerak.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola yoki uning oilasi haqida ma'lumotlar faqat zarur hollarda, ota-ona roziligi va maxfiylik talablariga rioya qilingan holda muhokama qilinadi.

Jamoatchilik bilan hamkorlik inklyuziv madaniyatni kengroq muhitda shakllantirishga yordam beradi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, tibbiyot muassasalari, ijtimoiy xizmatlar, madaniyat va sport tashkilotlari, homiylar, ota-onalar qo'mitasi va mahalliy tashabbuskor guruhlar maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishda ko'maklashishi mumkin. Bunday hamkorlik orqali maktabda to'siqsiz muhitni yaxshilash, maxsus o'quv vositalari bilan ta'minlash, trening va seminarlar o'tkazish, bolalarni sport, ijodiy va madaniy tadbirlarga jalb etish imkoniyati kengayadi.

Maktab direktori ota-onalar, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikni tashkil etishda quyidagi vazifalarga e'tibor qaratishi lozim:

ota-onalar bilan muntazam muloqot va maslahat tizimini yo'lga qo'yish;

har bir o'quvchi bo'yicha maxfiylik va shaxsiy qadr-qimmatni



hurmat qilish tamoyiliga rioya etish;

mahalla va ijtimoiy xizmatlar bilan ehtiyojga asoslangan hamkorlikni tashkil etish;

pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilik vakillari uchun inklyuziv madaniyat bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni maktab tadbirlari, to'garaklar, sport va ijodiy faoliyatlarga jalb etish;

ota-onalar o'rtasida kamsitmaslik, bag'rikenglik va hamkorlik madaniyatini shakllantirish;

oilaga pedagogik, psixologik va ijtimoiy ko'mak ko'rsatish bo'yicha mas'ullar hamkorligini muvofiqlashtirish.



Hamkorlik jarayonida eng muhim mezon – bolaning manfaatini ustuvor qo'yishdir. Maktab, oila, mahalla va jamoatchilikning har bir harakati bolaning ta'lim olishi, rivojlanishi, xavfsizligi, ijtimoiy moslashuvi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

3-bob. MAXSUS TA'LIMDAN INKLYUZIV TA'LIMGA O'TISH VA O'QUVCHINI QO'LLAB-QUVVATLASH TARTIBI

3.1. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida o'quvchining ta'lim ehtiyojini belgilash



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchini inklyuziv ta'limga jalb etishda eng muhim bosqichlardan biri uning haqiqiy ta'lim ehtiyojini to'g'ri aniqlashdir. Bunda asosiy maqsad bolaga "Tashxis qo'yish" yoki uni boshqa o'quvchilardan ajratish emas, balki u qanday sharoitda yaxshiroq o'qishi, qaysi yordamga ehtiyoj sezishi, dars jarayonida qanday moslashtirishlar zarurligini aniqlashdan iborat.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya bolada alohida ta'lim ehtiyoji mavjud yoki mavjud emasligini, uning rivojlanish xususiyatlarini, ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlarni hamda qaysi ta'lim shakli unga mos kelishini kompleks o'rganadi. Amaldagi tartibga ko'ra, komissiyalar bolalarda alohida ta'limga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, kompleks psixologik-tibbiy-pedagogik tekshiruv o'tkazish va tekshiruv natijalari asosida ularni tegishli ta'lim muassasalariga yo'naltirish bo'yicha xulosa beradi.

Komissiya xulosasi maktab uchun muhim rasmiy asos hisoblanadi. O'quvchini inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilish ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi hamda psixologik-tibbiy-pedagogik

komissiya xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, ushbu xulosa inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf uchun maxsus pedagog yoki yordamchi xodim, ya'ni assistent-o'qituvchi shtatini ajratishga ham asos bo'ladi.

O'quvchining ta'lim ehtiyojini belgilashda bolaning sog'lig'i, nutqi, eshitishi, ko'rishi, harakatlanishi, bilish faoliyati, emotsional holati, muloqotga kirishishi, mustaqil harakat qilishi va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari inobatga olinadi.

Masalan, eshitishda qiyinchiligi bo'lgan o'quvchiga o'qituvchining yuzini aniq ko'rish, vizual materiallardan foydalanish va zarur hollarda ovoz kuchaytiruvchi vositalar kerak bo'lishi mumkin.

Ko'rishda qiyinchiligi bo'lgan o'quvchi uchun yirik shriftli materiallar, yaxshi yoritilgan joy va doskaga yaqin o'tirish muhim.

Harakatlanishida cheklovi bo'lgan bola uchun esa sinfga erkin kirish-chiqish, qulay stol-stul va to'siqsiz yo'lak zarur bo'ladi.

Maktab direktori uchun komissiya xulosasi faqat hujjat sifatida emas, balki o'quvchini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yo'l xaritasi sifatida qaralishi lozim. Xulosada ko'rsatilgan tavsiyalar asosida direktor sinf rahbari, fan o'qituvchilari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi va ota-onalar hamkorligini tashkil etadi.

Zarur hollarda o'quvchi uchun individual ta'lim dasturi ishlab chiqiladi, sinfdagi joylashuvi belgilanadi, o'quv materiallari moslashtiriladi va rivojlanish dinamikasi kuzatib boriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi bolaning imkoniyatini cheklash uchun emas, aksincha, uning ta'lim olish huquqini ta'minlash, maktabga moslashishini yengillashtirish va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam berish uchun xizmat qiladi.

Shuning uchun maktab xodimlari xulosadagi ma'lumotlarga ehtiyotkorlik bilan yondashishi, bolaning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilishi va ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi zarur.

Amaldagi nizomda bolalarni tekshirish natijalari va komissiya tekshiruvi bilan bog'liq ma'lumotlar maxfiy hisoblanishi, qonuniy vakillar rozilgisiz boshqa shaxslarga berilmasligi belgilangan.

Qabul jarayonida maktab rahbariyati ota-onalar bilan tushunarli va samimiy muloqot olib borishi kerak. Ota-onaga bolaning maktabdagi imkoniyatlari, qo'llab-quvvatlash shakllari, maxsus pedagog yoki assistent-o'qituvchi yordami, individual yondashuv va sinfga moslashuv jarayoni sodda tilda tushuntiriladi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga yo'llangan bolani maktab qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas.



Shu bois, o'quvchining ta'lim ehtiyojini belgilashda maktabning asosiy vazifasi – komissiya xulosasini to'g'ri o'rganish, undagi tavsiyalarni amaliy ish rejasiga aylantirish va har bir bolaning imkoniyatiga mos, xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi hamda insoniy ta'lim muhitini yaratishdan iborat.

3.2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni bir ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'tkazish

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan umumiy o'rta ta'lim maktabidagi inklyuziv ta'lim sinfiga o'tkazish jarayoni shoshilinch yoki faqat ota-onaning xohishi asosida amalga oshiriladigan oddiy ko'chi-

rish emas. Bu jarayon bolaning sog'lig'i, rivojlanish xususiyati, ta'lim ehtiyoji, ijtimoiy moslashuvi va umumta'lim maktabida zarur shart-sharoitlar mavjudligini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Bunday o'tkazishdan asosiy maqsad – bolani maxsus muhitdan ajratib olib, tayyorgarliksiz umumiy sinfga qo'shib qo'yish emas, balki uning tengdoshlari bilan birgalikda o'qishi, muloqot qilishi, o'z imkoniyatlarini namoyon etishi va jamiyatga bosqichma-bosqich moslashishiga sharoit yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning PQ–4860-son qarorida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarni umumta'lim maktablariga integratsiya qilish tajribasi qayd etilgan hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish, ularning ta'lim olish huquqini ta'minlash va zarur shart-sharoit yaratish vazifalari belgilangan.

O'quvchini umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'tkazishda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosiy hujjat hisoblanadi. Komissiya bolaning rivojlanish holati, o'qish imkoniyati, qaysi ta'lim shakli unga mosligi, qanday qo'llab-quvvatlash zarurligi va inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga yo'naltirish mumkinligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qaroriga ko'ra, o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi hamda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Ota-ona yoki qonuniy vakilning roziligi bu jarayonda muhim shartlardan biridir. Maktab rahbariyati ota-onaga bolaning qaysi sinfdan o'qishi, unga qanday yordam ko'rsatilishi, maxsus pedagog yoki assistent-o'qituvchi ishtiroki, individual ta'lim dasturi, moslashtirilgan o'quv vositalari va kuzatuv tartibini sodda tilda tushuntirishi kerak. Ota-onaga faqat rasmiy talablar emas, balki bolaning maktabga moslashuvi qanday kechishi ham aniq

tushuntirilishi lozim.

O'quvchi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'tkazilganda uning shaxsiy hujjatlar yig'majildi to'liq shakllantiriladi. Ushbu yig'majildda ota-onaning arizasi, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi, avval ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar, o'qigan joyidan berilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma, o'quvchiga ilgari ko'rsatilgan yakka tartibdagi yordam choralari haqidagi ma'lumotlar hamda tibbiy hujjatlar bo'lishi lozim. O'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'majildida ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar, o'qish joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma hamda rivojlanish tarixidan ko'chirma bo'lishi belgilangan.

Maktab direktori o'quvchini qabul qilishdan oldin maktabdagi mavjud sharoitni tahlil qiladi. Bunda sinf xonasining qulayligi, o'quvchining harakatlanishi uchun to'siqsiz muhit, zarur o'quv vositalari, maxsus pedagog yoki assistent-o'qituvchi yordami, maktab psixologi ishtiroki va sinf jamoasining tayyorgarligi hisobga olinadi. Inklyuziv ta'lim sinflari o'quvchilarning bino ichida harakatlanishi va ta'lim olishi uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda tashkil etilishi belgilangan.

O'quvchi qabul qilingandan keyin jarayon maktab direktori-ning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruqda o'quvchini qaysi sinfga qabul qilish, mas'ul xodimlar, sinf rahbari, fan o'qituvchilari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi va monitoring tartibi ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Amaldagi tartibga ko'ra, inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o'quv yili boshlanguncha hamda o'quv yili davomida amalga oshirilishi va maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtirilishi belgilangan.

Bola yangi maktabga kelganidan keyin uning moslashuv davri alohida e'tibor bilan tashkil etiladi. Dastlabki kunlarda o'quvchi sinf muhiti, o'qituvchilar, tengdoshlari, dars tartibi,

tanaffus, oshxona, kutubxona va boshqa maktab hududlari bilan tanishtiriladi. Sinf rahbari, maxsus pedagog va maktab psixologi bolaning emotsional holati, muloqotga kirishishi, topshiriqlarni bajarishi va tengdoshlari bilan munosabatini kuzatib boradi.

O'quvchi uchun individual ta'lim dasturi ishlab chiqiladi. Ushbu dasturda bolaning kuchli tomonlari, qiyinchiliklari, qo'llab-quvvatlash usullari, moslashtirilgan topshiriqlar, korreksion-pedagogik mashg'ulotlar, ota-ona bilan hamkorlik va rivojlanish dinamikasini kuzatish tartibi belgilanadi.



O'quvchini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan inklyuziv ta'limga o'tkazishda eng muhim talab – bola manfaatini ustuvor qo'yishdir. Agar bola umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qishga tayyor bo'lsa, zarur sharoitlar yaratilsa va mutaxassislar tomonidan

qo'llab-quvvatlansa, bu jarayon uning ijtimoiy moslashuvi, mustaqilligi va o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi.

3.3. O'quvchini inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilish va rasmiylashtirish

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchini inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilish bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan muhim jarayondir. Bu jarayonda asosiy maqsad bolani shunchaki maktab ro'yxatiga kiritish emas, balki uning imkoniyati, sog'lig'i, rivojlanish xususiyati va ta'lim ehtiyojidan kelib chiqib, unga mos sharoit yaratishdan iborat.

Inklyuziv ta'lim sinfi va boshlang'ich tayanch korreksion sinf o'quvchilarning bino ichida erkin harakatlanishi va ta'lim olishi uchun zarur maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda tashkil etiladi.

Shu sababli maktab rahbariyati o'quvchini qabul qilishdan oldin sinf xonasi, harakatlanish yo'laklari, maxsus yordam ko'rsatish xonasi, o'quv vositalari, maxsus pedagog yoki assistent-o'qituvchi yordami mavjudligini o'rganib chiqishi zarur.

Maktabning inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarining birinchi sinfiga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. ***Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni ham qabul qilishga ruxsat etiladi.***

O'quvchini inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilish ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi hamda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida amalga oshiriladi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi o'quvchini tegishli sinfga qabul qilishga, shuningdek, zarur hollarda maxsus pedagog yoki yordamchi xodim, ya'ni assistent-o'qituvchi shtatini ajratishga asos bo'ladi.

Agar o'quvchi boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib o'qishni istasa, u qabul qilinayotgan maktab joylashgan hudud-dagi psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi asosida qabul qilinadi. Qabul qilish o'quv yili boshlanguncha ham, o'quv yili davomida ham amalga oshirilishi mumkin va bu jarayon maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

O'quvchi qabul qilinayotganda ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi rasmiylashtiriladi ham-



da maktab rahbariyatiga taqdim etiladi. Ushbu yig'majildda ota-onaning arizasi, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi, ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar, avval o'qigan ta'lim muassasasidan ma'lumotnoma va tavsifnoma, shuningdek, o'quvchining rivojlanish tarixidan ko'chirma bo'lishi kerak.

Maktab psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga yo'llangan bolani qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas. Bunday holatda maktabning vazifasi bolani rad etish emas, balki mavjud sharoitni tahlil qilish, zarur yordamni tashkil etish va o'quvchining maktabga moslashuvini ta'minlashdan iborat.



Qabul jarayonida maktab direktori quyidagi ishlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

ota-onaning arizasi va rozilik hujjatini qabul qiladi;

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasini o'rganadi;

o'quvchining ta'lim ehtiyoji va qo'llab-quvvatlash shaklini aniqlaydi;

sinf xonasi, o'quv vositalari va maktab muhitining mosligini tekshiradi;

sinf rahbari, fan o'qituvchilari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi va maktab psixologi vazifalarini belgilaydi;

o'quvchini tegishli sinfga qabul qilish bo'yicha buyruq chiqaradi;

o'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'majildini yuritadi;

zarur hollarda individual ta'lim dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etadi.

Inklyuziv ta'lim sinfida jami o'quvchilar soni o'ttiz nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinfda umumiy ta'lim dasturi bo'yicha o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga maxsus yoki korreksion dastur asosida o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar soni **uch nafardan** oshmasligi lozim. Alohida holatlarda, agar

sinf maktabda bitta bo'lib, uning paralleli mavjud bo'lmasa, tegishli rozilik asosida ushbu sinfga uch nafardan ortiq bola qabul qilishga yo'l qo'yilishi mumkin.

Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda esa o'quvchilar soni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun belgilangan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari sinflaridagi me'yorlarga muvofiq belgilanadi. Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'qitish-tarbiyalash jarayoni o'quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Qabul qilinganidan so'ng o'quvchi darhol nazoratsiz qoldirilmasligi kerak. Sinf rahbari, maktab psixologi, maxsus pedagog va assistent-o'qituvchi bolaning yangi muhitga moslashuvi, tengdoshlari bilan muloqoti, darslarda ishtiroki, topshiriqlarni bajarishi va emotsional holatini kuzatib boradi.

Zarur hollarda o'quvchi uchun individual ta'lim dasturi ishlab chiqiladi, o'quv materiallari moslashtiriladi va ota-onalar bilan muntazam hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

4-BOB. INKLYUZIV SINFDA PEDAGOGIK JARAYON VA MUTAXASSISLAR HAMKORLIGI

4.1. Dars jarayonida differensial, moslashtirilgan va korreksion yondashuvlar

Inklyuziv ta'lim sinfida dars jarayoni barcha o'quvchilar uchun bir xil mazmunni majburan bir xil usulda o'rgatish emas, balki har bir bolaning imkoniyati, ehtiyoji, rivojlanish darajasi va o'zlashtirish sur'atini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak.

Bunda asosiy maqsad o'quvchini sinf jamoasidan ajratish emas, balki unga ta'lim mazmunini tushunishi, topshiriqlarni bajara olishi va darsda faol ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qarorida inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'qitish-tarbiyalash jarayoni o'quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi belgilangan.

Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga individual moslashtirilgan ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va yordamchi pedagog xodimlar ko'maklashishi nazarda tutilgan.



Differensial yondashuv – bu sinfdagi o'quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishi, o'zlashtirish sur'ati va mustaqil ishlash imkoniyatiga qarab darsni turli darajada tashkil etishdir.

Masalan, bir mavzu bo'yicha ayrim o'quvchilarga oddiy savol-javob, boshqalariga rasm asosida tushun-

tirish, yana bir guruhga amaliy topshiriq yoki mustaqil izlanish berilishi mumkin. Bunda darsning umumiy maqsadi saqlanadi, ammo unga erishish yo'li har bir o'quvchining imkoniyatiga moslashtiriladi.



Moslashtirilgan yondashuv – bu o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqib, dars mazmuni, topshiriq shakli, baholash usuli, o'quv vositasi, vaqt va sinfdagi joylashuvni o'zgartirishdir.

Masalan, eshitishda qiyinchiligi bo'lgan o'quvchiga ko'rgazmali materiallar ko'proq beriladi, ko'rishda qiyinchiligi bo'lgan o'quvchi uchun yirik shriftli matn yoki audio materialdan foydalaniladi, harakatlanishida cheklovi bo'lgan o'quvchi uchun qulay o'tirish joyi va erkin harakatlanish imkoniyati yaratiladi.

Moslashtirish o'quvchiga yengillik berish emas, balki uning bilim olishiga xalaqit berayotgan to'siqlarni kamaytirishdir.



Korreksion yondashuv – bu o'quvchining nutqiy, bilish, emotsional, ijtimoiy yoki harakat rivojlanishidagi qiyinchiliklarni kamaytirishga qaratilgan pedagogik yordamdir. Korreksion ishlar darsdan butunlay ajratilgan holatda emas, balki dars jarayoni, individual

mashg'ulotlar, kichik guruhli faoliyat va kundalik muloqot bilan bog'liq holda olib boriladi. Bunda maxsus pedagog, maktab psixologi, sinf rahbari, fan o'qituvchisi va assistent-o'qituvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi.

Darsni tashkil etishda o'qituvchi avvalo "bu mavzuni barcha o'quvchilar qanday tushunadi?", "kimga qanday yordam kerak?", "qaysi topshiriqni soddalashtirish yoki bosqichlarga ajratish lozim?", "qaysi o'quvchi ko'proq ko'rgazma, amaliy faoliyat yoki og'zaki tushuntirish orqali yaxshiroq o'zlashtiradi?" degan savollarga javob topishi kerak. Shundan kelib chiqib dars rejasi moslashtiriladi.

Xalqaro tajribada bunday yondashuv universal ta'lim dizayni bilan bog'liq holda izohlanadi. Amaliy maxsus texnologiyalar markazi (Center for Applied Special Technology – CAST) tomonidan ishlab chiqilgan universal ta'lim dizayni tamoyillarida o'quvchilarni darsga jalb etish, axborotni turli usullarda taqdim etish hamda o'quvchilarga bilimini turli shakllarda ifodalash imkonini berish muhimligi ko'rsatiladi.

Amaliy dars jarayonida differensial, moslashtirilgan va korreksion yondashuvlar quyidagi tarzda qo'llanilishi mumkin:

1. Mavzuni tushuntirishda turli usullardan foydalanish.

O'qituvchi mavzuni faqat og'zaki bayon qilmasdan, rasm, jadval, predmet, video, imo-ishora, piktogramma, amaliy harakat yoki real hayotiy misollar orqali tushuntiradi.

2. Topshiriqlarni darajalash. Bir xil mavzu bo'yicha o'quvchilarga yengil, o'rta va murakkab darajadagi topshiriqlar beriladi. Bu sinfdagi barcha bolalarning darsda ishtirok etishini ta'minlaydi.

3. Vaqtni moslashtirish. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchiga topshiriqni bajarish uchun qo'shimcha vaqt berilishi mumkin. Muhimi, bola shoshiltirilmasligi va o'z imkoniyatiga mos sur'atda ishlashi kerak.

4. O'quv materiallarini moslashtirish. Matn qisqartirilishi, asosiy so'zlar ajratib ko'rsatilishi, savollar bosqichma-bosqich berilishi, rasmi kartochkalar, yirik shrift, audio material yoki amaliy predmetlardan foydalanilishi mumkin.

5. Guruhli va juftlikdagi ishlarni tashkil etish. O'quvchilar bir-biriga yordam beradigan, fikr almashadigan va hamkorlikda natijaga erishadigan topshiriqlar bajaradi. Bunda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchi chetda qolmasligi, unga imkoniyatiga mos vazifa berilishi lozim.

6. Baholashni moslashtirish. O'quvchining faqat yakuniy natijasi emas, balki harakati, ishtiroki, mustaqil bajargan qismi, rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlar ham inobatga olinadi. Ayrim

hollarda o'quvchi bilimini og'zaki javob, rasm, amaliy ish, ko'rgazma yoki yordamchi vosita orqali namoyon qilishi mumkin.

7. Korreksion yordamni dars bilan bog'lash. Maxsus pedagog yoki assistent-o'qituvchi o'quvchiga topshiriqni tushunish, faoliyat bosqichlarini ajratish, materialdan foydalanish va darsda ishtirok etishda yordam beradi. Biroq bu yordam bolaning o'rniga vazifani bajarish shaklida bo'lmasligi kerak.



UNESCO inklyuziv ta'limni ta'limdagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish, o'quv dasturi, pedagogika hamda o'qitish jarayonini barcha o'quvchilar uchun moslashtirish bilan bog'liq yondashuv sifatida izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, darsdagi moslashtirishlar alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchiga imtiyoz berish emas, balki uning ta'lim olish huquqini amalda ta'minlash vositasidir.

Dars jarayonida o'qituvchi, maxsus pedagog va assistent-o'qituvchi hamkorligi aniq bo'lishi kerak. Fan o'qituvchisi mavzuni tushuntiradi va darsni boshqaradi, maxsus pedagog o'quvchining ehtiyojiga mos metodik tavsiyalar beradi, assistent-o'qituvchi esa o'quvchining darsdagi ishtirokiga ko'maklashadi.

Maktab psixologi zarur hollarda bolaning emotsional holati, muloqoti va moslashuvini kuzatadi.

4.2. Fan o'qituvchisi, sinf rahbari, maktab psixologi va tibbiyot xodimi hamkorligi

Inklyuziv ta'lim sinfida o'quvchini qo'llab-quvvatlash birgina fan o'qituvchisi zimmasiga yuklanmaydi. Bu jarayon fan o'qituvchisi, sinf rahbari, maktab psixologi, tibbiyot xodimi, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi va ota-onalarning o'zaro hamkorligi asosida tashkil etiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining darsdagi ishtiroki, psixologik holati, sog'lig'i, tengdoshlari bilan munosabati va o'quv materialini o'zlashtirishi bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qarorida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim shakli sifatida belgilangan.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim sinflarida o'qitish-tarbiyalash jarayoni o'quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi ko'rsatilgan.

Shu bois maktabdagi har bir mutaxassis o'z vazifasini alohida emas, umumiy maqsad – o'quvchini ta'lim jarayoniga faol qo'shish maqsadida bajarishi lozim.

Fan o'qituvchisi inklyuziv sinfda dars jarayonining asosiy tashkilotchisi hisoblanadi. U mavzuni tushuntirish, topshiriqlarni berish, o'quvchilarning javoblarini baholash va darsdagi tartibni boshqaradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi bilan ishlashda fan o'qituvchisi topshiriqlarni bolaning imkoniyatiga moslashtiradi, ko'rgazmali materiallardan foydalanadi, zarur hollarda savollarni soddalashtiradi, javob berish uchun qo'shimcha vaqt beradi va bolaning darsdagi kichik yutuqlarini ham rag'batlantiradi. Bunda o'qituvchi o'quvchini sinfdan ajra-

tib qo'ymasligi, aksincha, uni umumiy dars faoliyatiga jalb etishi kerak.

Sinf rahbari o'quvchining sinf jamoasiga moslashuvi, tengdoshlari bilan munosabati, davomat, intizom, ota-onalar bilan muloqot va sinfdagi ijtimoiy muhit uchun mas'ul shaxs hisoblanadi. U alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining sinfda o'zini qanday his qilayotganini, do'stlari bilan muloqoti qanday kechayotganini, darsdan tashqari tadbirlarda ishtirokini va ijtimoiy moslashuvini kuzatib boradi. Sinf rahbari o'quvchilar orasida bag'rikenglik, o'zaro hurmat va yordam berish madaniyatini shakllantiradi.

Maktab psixologi o'quvchining emotsional holati, muloqotga kirishishi, o'ziga bo'lgan ishonchi, xavotiri, sinfga moslashuvi va xulq-atvoridagi o'zgarishlarni kuzatib boradi. Zarur hollarda o'quvchi bilan yakka tartibda suhbat o'tkazadi, sinf jamoasi bilan trening, moslashuv mashg'ulotlari yoki psixologik suhbatlar tashkil etadi. Psixolog fan o'qituvchisi va sinf rahbariga o'quvchi bilan qanday muloqot qilish, qanday vaziyatlarda ehtiyotkor bo'lish va qanday qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Tibbiyot xodimi o'quvchining sog'lig'i, jismoniy holati, charchash darajasi, dars jarayonidagi xavfsizligi va tibbiy tavsiyalarga rioya etilishini kuzatadi. U o'quvchining sog'lig'i bilan bog'liq cheklovlar, jismoniy faollik, dam olish zarurati, dars jadvali yoki o'tirish joyini belgilashda maktab jamoasiga maslahat beradi. Bunda tibbiyot xodimi bolaning sog'lig'i haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi va faqat zarur ma'lumotlarni tegishli mas'ullarga yetkazishi lozim.

Mazkur mutaxassislar hamkorligi quyidagi tartibda tashkil etilishi maqsadga muvofiq:

1. Darsdan oldin kelishuv. Fan o'qituvchisi, sinf rahbari, psixolog va zarur hollarda tibbiyot xodimi o'quvchining ehtiyoji, darsdagi ishtiroki, o'tirish joyi, topshiriq shakli va qo'llab-quvvatlash usullarini oldindan kelishib oladi.

2. Dars jarayonida o'zaro yordam. Fan o'qituvchisi darsni boshqaradi, assistent-o'qituvchi yoki maxsus pedagog o'quvchining topshiriqni tushunishi va bajarishiga ko'maklashadi, psixolog esa zarur holatlarda bolaning emotsional holatini kuzatadi.

3. Darsdan keyingi tahlil. Sinf rahbari va fan o'qituvchisi o'quvchining darsdagi ishtiroki, muvaffaqiyati, qiyinchiliklari va keyingi yordam choralari muhokama qiladi. Zarur hollarda psixolog yoki tibbiyot xodimi bilan maslahatlashiladi.

4. Ota-onalar bilan qayta aloqa. Ota-onalarga bolaning faqat muammolari emas, balki ijobiy o'zgarishlari, yutuqlari va uy sharoitida qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar ham yetkaziladi.

5. Individual ta'lim dasturini kuzatish. Agar o'quvchi uchun individual ta'lim dasturi ishlab chiqilgan bo'lsa, fan o'qituvchisi, sinf rahbari, maxsus pedagog, psixolog va ota-onalar uning bajarilishini muntazam kuzatib boradi. Amaldagi rasmiy qarorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga individual moslashtirilgan ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va yordamchi pedagog xodimlar ko'maklashishi nazarda tutilgan.



Hamkorlikda ishlashda eng muhim talab – bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish va ma'lumotlar maxfiyligini saqlashdir. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya faoliyatiga oid nizomda bolalarni kompleks tekshiruvdan o'tkazish, ularning ta'lim ehtiyojini aniqlash va

tegishli ta'lim muassasalariga yo'naltirish uchun xulosa berish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shu sababli maktab mutaxassislari komissiya xulosasidagi tavsiyalarga ehtiyotkorlik bilan yondashishi, ularni bolaning manfaatiga xizmat qiladigan amaliy qo'llab-quvvatlash choralari aylantirishi kerak.

Hamkorlik samarali bo'lishi uchun maktab direktori har bir mutaxassisning vazifasini aniq belgilashi, ularning o'zaro mulo-

qotini yo'lga qo'yishi va muammolarni vaqtida muhokama qilish uchun sharoit yaratishi zarur.

Agar fan o'qituvchisi bolani darsda o'rgansa, sinf rahbari uni jamoada kuzatsa, psixolog uning ichki holatini tushunsa, tibbiyot xodimi sog'lig'i bo'yicha tavsiya bersa, maxsus pedagog va assistent-o'qituvchi amaliy yordam ko'rsatsa, o'quvchi uchun haqiqiy qo'llab-quvvatlovchi muhit shakllanadi.

4.3. Maxsus pedagogning asosiy lavozim vazifalari, malaka tavsifi va lavozim yo'riqnomasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining “Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2026-yil 13-yanvardagi 9-sonli buyrug'iga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktabi maxsus pedagogning ham lavozim malaka tavsiflari tasdiqlangan.

Ma'lumoti: oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi, magistratura yoki ilmiy darajaga egalik afzallik beradi.

Mutaxassislik: kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumotli defektologiya, logopediya, surdopedagogika, tiflopedagogika yoki oligofrenopedagogika yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan yoki defektologiya sohalar bo'yicha yo'nalishida tegishli qayta tayyorlashdan o'tgan bo'lishi lozim.

Mehnat staji: mehnat staji talab etilmaydi.

Kompyuter savodxonligi: Microsoft Office dasturi, ya'ni Word, Excel, Power Point va boshqa dasturlar, sun'iy intellekt, zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, qo'shimcha talablar mavjud.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining “Xodimlarining lavozim yo'riqnomalari” 2026-yil 19-yanvardagi 18-sonli buyrug'iga muvofiq maxsus pedagogning lavozim majburiyatlari ham tasdiqlangan.



Maxsus pedagogning lavozim majburiyatlari quyidagilardan iborat:

alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"

gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarida belgilangan huquqlariga rioya qilish va ehtiyojlarini ta'minlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlash;

maktabda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga kompleks pedagogik yordam olishda va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatish;

rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishi ta'minlangan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va jismoniy salohiyatlarini rivojlantirish;

barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni far-

zandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabar-dorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash;

inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi o'quvchilarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga yordam ko'rsatish;

mavjud og'ir nuqsonli bo'lgan, harakati, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash;

inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda hamda maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib borish va muvofiqlashtirish;

boshqa pedagoglar bilan birgalikda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilari bilan ishlash rejalarini tuzish va ularni sinfga uyg'unlashtirish;

korreksion ta'limni olib borish, mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlash, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtirish, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib borish;

o'quvchilar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil etish;

o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish, metodik uyushmalar faoliyatida va boshqa ko'rinishdagi metodik ishlarda qatnashish;

ta'lim jarayonida o'quvchilarning hayotini va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga ko'maklashish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasasi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun

talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanish va but saqlanishi hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilishni ta'minlash;

bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etmaslik, zo'ravonlikka uchragan bolalar to'g'risida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va ichki ishlar organlarini xabardor qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirish.

4.4. Yordamchi xodim, ya'ni assistent-o'qituvchining asosiy lavozim vazifalari, malaka tavsifi va lavozim yo'riqnomasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2026-yil 13-yanvardagi 9-sonli buyrug'iga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktabi yordamchi xodim, ya'ni assistent-o'qituvchining ham lavozim malaka tavsiflari tasdiqlangan.

Ma'lumot: o'rta-maxsus yoki oliy ma'lumotli pedagogika sohasida diplomga ega bo'lishi. Magistratura yoki ilmiy darajaga egalik afzallik beradi.

Mutaxassislik: alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan ushbu turdagi bolalar bilan ishlash uchun maxsus ta'lim yoki sertifikatga ega bo'lgan, psixologiya, pedagogika yoki maxsus ta'lim sohasida o'rta-maxsus yoki oliy ma'lumotli bo'lishi lozim.

Mehnat staji: mehnat staji talab etilmaydi.

Kompyuter savodxonligi: Microsoft Office dasturi, ya'ni

Word, Excel, Power Point va boshqa dasturlar, sun'iy intellekt, zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, qo'shimcha talablar mavjud.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining “Xodimlarining lavozim yo'riqnomalari” 2026-yil 19-yanvardagi 18-sonli buyrug'iga muvofiq yordamchi xodim, ya'ni assistent-o'qituvchining lavozim majburiyatlari ham tasdiqlangan.

Yordamchi xodim – assistent-o'qituvchining lavozim majburiyatlari quyidagilardan iborat:

Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunlarida belgilangan huquqlariga rioya qilish va ehtiyojlarini ta'minlash;

o'qituvchi ko'rsatmasiga muvofiq bolaga dars jarayonida tushunish, yozish, o'qish va boshqa mashg'ulotlarda ko'maklashish;

inklyuziv sinfdagi bolalarning sinfdagi faoliyatini muntazam kuzatish, zaif o'zlashtiruvchi o'quvchilar yoki ehtiyojlar haqida o'qituvchi va psixologga ma'lum qilish;

alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchi ishtirok etadigan testlar, mashg'ulotlar va rivojlantiruvchi baholash jarayonida ishtirok etish;

alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchining o'ziga ishonchi va ijobiy hissiyotlarini oshirishga harakat qilish, jamoada ishlash va sinfdagi o'zaro hurmat muhitini shakllantirishda faol ishtirok etish;

tanaffus, ovqatlanish, jismoniy mashg'ulotlar va ekskursiyalarda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchiga ko'maklashish, boshqa bolalar bilan harakatlarini ta'minlash, ijtimoiy integratsiyasiga yordam berish;

inklyuziv sinfdagi bolalar bilan ishlash jarayonini kundalik

qayd etish, ota-ona, o'qituvchi va mutaxassislar bilan ma'lumot almashish, zarur hollarda foydalaniladigan vositalar va harakat usullarini o'qituvchi va psixolog bilan maslahatlashib qo'llash;

o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish, metodik uyushmalar faoliyatida va boshqa ko'rinishdagi metodik ishlarda qatnashish;

ta'lim jarayonida o'quvchilarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga ko'maklashish;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;

ta'lim muassasasi obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun talablariga rioya qilish;

ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanish va but saqlanishi hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilishni ta'minlash;

bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etmaslik, zo'ravonlikka uchragan bolalar to'g'risida ish beruvchini, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va ichki ishlar organlarini xabardor qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirish.

5-BOB. INKLYUZIV TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISH

5.1. Inklyuziv ta'lim jarayonini maktab direktori va direktor o'rinbosarlari tomonidan ichki nazorat qilish tartibi

Inklyuziv ta'lim jarayonini ichki nazorat qilishdan asosiy maqsad alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olish huquqi, xavfsizligi, darsdagi ishtiroki, o'zlashtirishi va ijtimoiy moslashuvini muntazam kuzatib borishdan iborat.

Bunda nazorat jazolash yoki kamchilik izlash uchun emas, balki mavjud muammolarni vaqtida aniqlash va o'quvchiga zarur yordamni tashkil etish uchun olib boriladi.

Maktab direktori inklyuziv ta'lim jarayonining umumiy tashkil etilishi, ichki hujjatlar yuritilishi, sinf xonalari va maxsus yordam ko'rsatish xonasi holati, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi va fan o'qituvchilari hamkorligini muvofiqlashtirish uchun mas'ul hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 638-son qarorida inklyuziv ta'lim sinflarida o'qitish-tarbiyalash jarayoni o'quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi belgilangan.

Direktor o'rinbosarlari esa dars jarayoni, individual ta'lim dasturi bajarilishi, o'quv materiallarining moslashtirilishi, davomat, o'zlashtirish, korreksion mashg'ulotlar va pedagoglar faoliyatini muntazam tahlil qilib boradi. Zarur hollarda fan o'qituvchisi, sinf rahbari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi, tibbiyot xodimi va ota-onalar ishtirokida muhokama o'tkaziladi.

Ichki nazorat quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq:

1. O'quvchining darsdagi ishtirokini kuzatish. O'quvchining darsga qatnashishi, topshiriqlarni bajarishi, tengdoshlari bilan muloqoti va o'zini sinfda qanday his qilishi o'rganiladi.

2. Individual ta'lim dasturi bajarilishini tahlil qilish.

O'quvchi uchun belgilangan moslashtirilgan topshiriqlar, korreksion mashg'ulotlar va qo'llab-quvvatlash choralari amalda bajarilayotgani tekshiriladi.

3. Pedagoglar hamkorligini baholash. Fan o'qituvchisi, sinf rahbari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, psixolog va tibbiyot xodimi o'rtasidagi vazifalar aniq taqsimlanganligi va hamkorlik samaradorligi o'rganiladi.

4. Maktab muhitining mosligini nazorat qilish. Sinf xonasi, harakatlanish yo'laklari, maxsus yordam ko'rsatish xonasi, o'quv vositalari va xavfsizlik sharoitlari o'quvchining ehtiyojiga mosligi tekshiriladi.

5. Ota-onalar bilan qayta aloqani yo'lga qo'yish. Ota-onalar bilan suhbatlar orqali bolaning maktabdagi va uydagi holati, rivojlanishidagi o'zgarishlar hamda qo'shimcha yordam zarurati aniqlanadi.

Ichki nazorat natijalari bo'yicha qisqa tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlanadi, aniqlangan muammolar yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilanadi va ularning bajarilishi keyingi monitoringda qayta ko'rib chiqiladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi o'quvchining ta'lim ehtiyojini aniqlash va tegishli ta'lim muassasasiga yo'naltirishda asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi, shu sababli maktabdagi ichki nazorat ham ushbu tavsiyalarga mos ravishda olib borilishi lozim.



5.2. O'quvchining o'zlashtirishi, darslarda ishtirok etishi, psixologik holati va ijtimoiy moslashuvini monitoring qilish



Inklyuziv ta'lim sinfida o'quvchini monitoring qilishdan asosiy maqsad uning ta'lim jarayonidagi holatini muntazam kuzatish, mavjud qiyinchiliklarni erta aniqlash va zarur yordam choralari belgilashdan iborat.

Monitoring o'quvchini nazorat qilish yoki baholash uchun emas, balki uning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun olib boriladi.

Monitoring jarayonida o'quvchining darslarni o'zlashtirishi, topshiriqlarni bajarish darajasi, darsdagi faolligi, tengdoshlari bilan muloqoti, emotsional holati, o'ziga bo'lgan ishonchi va sinf jamoasiga moslashuvi muntazam o'rganiladi. Bunda fan o'qituvchisi, sinf rahbari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi va ota-onalar hamkorlikda ishlaydi.

O'quvchining o'zlashtirishi faqat baholar orqali emas, balki uning individual rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlar, mustaqil bajara oladigan topshiriqlari, darsdagi ishtiroki va kichik yutuqlari orqali ham baholanadi. Zarur hollarda topshiriqlar, o'quv materiallari, baholash shakli va dars jarayonidagi qo'llab-quvvatlash usullari moslashtiriladi.

Psixologik holatni kuzatishda o'quvchining kayfiyati, xavotiri, darsga munosabati, muloqotga kirishishi, o'zini sinfda erkin his qilishi va tengdoshlari bilan munosabati e'tiborga olinadi. Agar o'quvchida tortinchoqlik, qo'rquv, chetlashish, tajovuzkorlik yoki haddan tashqari charchash holatlari kuzatilsa, maktab psixologi va sinf rahbari tomonidan qo'shimcha yordam chorasi belgilanadi.

Ijtimoiy moslashuv monitoringida o'quvchining sinf jamoasi-



ga qo'shilishi, do'st orttirishi, guruhli ishlarda qatnashishi, maktab tadbirlarida ishtirok etishi va o'zini jamoaning teng a'zosi sifatida his qilishi kuzatiladi.

Bu jarayonda o'quvchini ajratib qo'ymaslik, haddan tashqari himoyalamaslik va uning mustaqilligini bosqichma-bosqich rivojlantirish muhimdir.

Monitoring natijalari bo'yicha qisqa kuzatuv varaqasi yoki tahliliy qayd yuritiladi. Aniqlangan muammolar yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilanadi, ota-onalar bilan maslahatlashiladi va keyingi kuzatuvda bajarilgan ishlar natijasi qayta ko'rib chiqiladi.

O'quvchining o'zlashtirishi, darslardagi ishtiroki, psixologik holati va ijtimoiy moslashuvini monitoring qilish inklyuziv ta'lim sifatini ta'minlashning muhim shartidir.

Bu jarayon har bir bolaning imkoniyatiga mos yordam ko'rsatish, rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va maktab hayotida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

5.3. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya, "G'amxo'rlik" guruhlari, tibbiyot muassasalari va ijtimoiy xizmatlar bilan idoralararo hamkorlik

Inklyuziv ta'limda o'quvchini qo'llab-quvvatlash faqat maktabning ichki imkoniyatlari bilan cheklanmaydi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning ta'lim olishi, sog'lig'i, reabilitatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va oilaviy holatini kompleks qo'llab-quvvatlash uchun maktab psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya, "G'amxo'rlik" guruhleri, tibbiyot muassasalari hamda ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlikda ishlashi zarur.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya bolaning alohida ta'lim ehtiyojini aniqlaydi, uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganadi hamda qaysi ta'lim shakli va qo'llab-quvvatlash turi zarurligi bo'yicha xulosa beradi. Ushbu xulosa maktab uchun o'quvchini inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilish, individual ta'lim dasturini ishlab chiqish va zarur sharoitlarni yaratishda asosiy hujjat hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 638-son qarorida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish, bolalarni inklyuziv sharoitda ta'lim olish uchun umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga o'tkazish hamda ularning umumiy o'rta ta'lim olishida va jamiyatga moslashuvida ko'maklashish tartiblari belgilangan.

"G'amxo'rlik" guruhleri alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya va reabilitatsiya yo'nalishida qo'shimcha yordam ko'rsatishga xizmat qiladi. Vazirlar Mahkamasining 46-son qarori bilan "G'amxo'rlik" guruhleri to'g'risidagi nizom, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar to'g'risidagi nizom hamda bolalar reabilitatsiyasi bo'limlari uchun zarur jihozlar ro'yxati tasdiqlangan.



Mazkur qarorda “G’amxo’rlik” guruhida o’qitish davomiyligi va muddati bolaning sog’lig’i holati hamda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida ishlab chiqiladigan yakka tartibdagi ta’lim-reabilitatsiya dasturiga muvofiq belgilanishi ko’rsatilgan.

Tibbiyot muassasalari bolaning sog’lig’i, reabilitatsiya ehtiyoji, jismoniy holati va tibbiy tavsiyalarini aniqlashda muhim o’rin tutadi. Maktab tibbiyot xodimi, psixolog, maxsus pedagog va sinf rahbari tibbiyot muassasalari tavsiyalariga tayangan holda o’quvchining darsdagi yuklamasi, harakatlanishi, dam olishi, ovqatlanishi va xavfsizligini inobatga olishi lozim.

Ijtimoiy xizmatlar, xususan, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan hamkorlik bolaning oilaviy va ijtimoiy holatini o’rganish, zarur ijtimoiy yordam choralari belgilash hamda oila bilan manzilli ishlashga yordam beradi. Vazirlar Mahkamasining 46-son qarorida psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya ko’rigidan o’tkazish uchun zarur hujjat va ma’lumotlar “Elektron hukumat” tizimi orqali idoralararo tartibda olinishi belgilangan.

Maktab direktori ushbu hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi shaxs sifatida har bir tashkilot bilan aloqani aniq tartibda yo’lga qo’yishi kerak.

Bunda komissiya xulosasi, tibbiy tavsiyalar, individual ta’lim dasturi, ota-ona roziligi, maxfiylik talablari va bolaning manfaatlari asosiy mezon bo’lib xizmat qiladi.

5.4. Inklyuziv muhit bo’yicha yillik tahlil, hisobdorlik va keyingi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish

Inklyuziv muhit bo’yicha yillik tahlil maktabda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ta’lim jarayonidagi ishtirok, o’zlashtirish, psixologik holat, ijtimoiy moslashuv hamda mutaxassislar hamkorligi samaradorligini baholashga xizmat qiladi.

Ushbu tahlil maktabda yil davomida amalga oshirilgan

ishlarning natijasini ko'rish, mavjud muammolarni aniqlash va keyingi o'quv yili uchun aniq vazifalarni belgilash imkonini beradi.

Yillik tahlilda quyidagi yo'nalishlar o'rganilishi maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilar bo'yicha natijalar. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning o'zlashtirishi, darslardagi ishtiroki, ijtimoiy moslashuvi, tengdoshlari bilan muloqoti va rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlar tahlil qilinadi.

2. Ta'lim muhiti holati. Sinf xonalari, maxsus yordam ko'rsatish xonasi, o'quv vositalari, harakatlanish yo'laklari, xavfsizlik va to'siqsiz muhitning o'quvchilar ehtiyojiga mosligi baholalanadi.

3. Pedagog va mutaxassislar faoliyati. Fan o'qituvchisi, sinf rahbari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi va tibbiyot xodimi hamkorligi, individual ta'lim dasturi bajarilishi hamda korreksion-pedagogik yordam sifati o'rganiladi.

4. Ota-onalar va tashkilotlar bilan hamkorlik. Ota-onalar, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya, tibbiyot muassasalari, ijtimoiy xizmatlar va mahalla bilan olib borilgan ishlar tahlil qilinadi.

Yillik tahlil natijalari asosida maktab rahbariyati tomonidan qisqa hisobot tayyorlanadi. Hisobotda yil davomida bajarilgan ishlar, erishilgan natijalar, aniqlangan muammolar, ularning sabablari hamda keyingi davrda amalga oshiriladigan vazifalar aniq ko'rsatiladi. Hisobdorlikning asosiy maqsadi faqat rasmiy ma'lumot berish emas, balki inklyuziv ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan amaliy qarorlar qabul qilishdir.



Keyingi o'quv yili uchun chora-tadbirlar rejasida quyidagilar aks ettirilishi lozim:

to'siqsiz va xavfsiz muhitni yaxshilash bo'yicha ishlar;

maxsus pedagog va assistent-o'qituvchi faoliyatini takomillashtirish;

pedagoglar uchun metodik yordam va malaka oshirish tadbirlari;

o'quv vositalari va moslashtirilgan materiallar bilan ta'minlash;

ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va psixologik qo'llab-quvvatlanishini davom ettirish;

monitoring va ichki nazorat tizimini yanada tartibga solish.

Rejada har bir vazifa bo'yicha mas'ul shaxs, bajarish muddati va kutilayotgan natija aniq belgilanadi. Bu ishlarning tizimli bajarilishi maktabda inklyuziv muhitni barqaror rivojlantirishga yordam beradi.

Yillik tahlil, hisobdorlik va keyingi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish inklyuziv ta'lim sifatini oshirishning muhim bosqichidir. Bu jarayon maktabda har bir bola uchun xavfsiz, qulay, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

ILOVALAR

Maxsus ta'limdan inklyuziv ta'limga o'tish bo'yicha maktab direktori harakat algoritmi

Mazkur algoritm alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan umumiy o'rta ta'lim maktabidagi inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinfga o'tkazish jarayonida maktab direktori tomonidan amalga oshiriladigan asosiy harakatlarni belgilaydi.

Bosqich	Direktorning harakati	Natija
1-bosqich	Ota-ona yoki qonuniy vakilning murojaatini qabul qiladi.	O'quvchini inklyuziv sharoitda ta'limga qabul qilish jarayoni boshlanadi.
2-bosqich	Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasini o'rganadi.	Bolaning ta'lim ehtiyoji, tavsiya etilgan ta'lim shakli va qo'llab-quvvatlash turi aniqlanadi.
3-bosqich	O'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'majildini shakllantirishni tashkil etadi.	Ariza, rozilik hujjati, komissiya xulosasi, avvalgi ta'lim muassasasidan ma'lumotnoma, tavsifnoma va boshqa zarur hujjatlar jamlanadi.
4-bosqich	Maktabdagi mavjud sharoitni baholaydi.	Sinf xonasi, harakatlanish yo'laklari, maxsus yordam ko'rsatish xonasi, o'quv vositalari va xavfsizlik sharoitlari o'rganiladi.

Bosqich	Direktorning harakati	Natija
5-bosqich	O'quvchini qaysi sinfga joylashtirish masalasini aniqlaydi.	Inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf belgilanadi.
6-bosqich	Sinf rahbari, fan o'qituvchilari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi va tibbiyot xodimi vazifalarini belgilaydi.	O'quvchini qo'llab-quvvatlovchi maktab jamoasi shakllantiriladi.
7-bosqich	O'quvchini qabul qilish bo'yicha direktor buyrug'ini rasmiylashtiradi.	O'quvchi belgilangan tartibda maktabga qabul qilinadi.
8-bosqich	Ota-onaga bolaning ta'lim jarayoni, qo'llab-quvvatlash shakllari va moslashuv tartibini tushuntiradi.	Ota-ona bilan hamkorlik va qayta aloqa yo'lga qo'yiladi.
9-bosqich	Individual ta'lim dasturini ishlab chiqishni tashkil etadi.	O'quvchining imkoniyati, ehtiyoji va rivojlanish xususiyatiga mos ta'lim yo'nalishi belgilanadi.
10-bosqich	O'quvchining maktabga moslashuv davrini kuzatadi.	Darsdagi ishtirok, tengdoshlari bilan muloqot, psixologik holat va ijtimoiy moslashuv o'rganiladi.
11-bosqich	Sinfda bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitini shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi.	O'quvchi sinf jamoasining to'laqonli a'zosi sifatida qabul qilinadi.
12-bosqich	Monitoring natijalari asosida qo'shimcha yordam choralari belgilaydi.	O'quvchining rivojlanishi muntazam qo'llab-quvvatlanadi.

Direktor uchun qisqa eslatma: Maxsus ta'limdan inklyuziv ta'limga o'tish jarayonida asosiy mezon – bolaning manfaatini ustuvor qo'yishdir. O'quvchini umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'tkazish faqat hujjat almashinuvi emas, balki bolaning yangi muhitga moslashuvi, tengdoshlari bilan muloqoti, ta'lim jarayonida faol ishtiroki va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydigan muhim bosqichdir.

Maktab direktori ushbu jarayonda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga tayangan holda ota-onalar, pedagoglar, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi, tibbiyot xodimi va boshqa mas'ullar hamkorligini muvofiqlashtiradi.

Natijaviy maqsad: O'quvchi umumiy o'rta ta'lim maktabida o'zini xavfsiz, qadrlangan va qo'llab-quvvatlangan his qilishi, darslarda imkoniyatiga mos tarzda ishtirok etishi hamda sinf jamoasiga bosqichma-bosqich moslashishi kerak.

Individual ta'lim dasturi namunasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan O'zbekistonda 2022-yilda inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi JICAning **“O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim amaliyotini kuchaytirish”** loyihasi yo'lgan qo'yildi.

Loyiha 2021-yil noyabr oyidan 2024-yil noyabr oyigacha (36 oy), O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab vazirligi bilan inklyuziv ta'lim bo'yicha malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish, tarbiyachi va o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun instruktorlar tayyorlashga, shu bilan birga hududlardan olingan tajribali inklyuziv o'qituvchilardan mentor tayyorlash uchun o'quv kursi mavzularini onlayn va oflayn tarzda o'tkazish maqsad qilib olingan.

Ushbu belgilangan vazifalarni ijrosini ta'limlash maqsadida Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) **“Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim amaliyotini mustahkamlash”³** nomli loyihasi doirasida namunaviy individual ta'lim dasturini ishlab chiqishni rejalashtirdi.

Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning maqsadi umumiy o'rta ta'limda inklyuziv ta'lim sinflariga qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni uzoq va qisqa vaqt ichida individual ehtiyojlari, qiziqish-qobiliyatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishishiga ko'maklashish, rag'batlantirishga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning asosiy vazifalari:

³ <https://gov.uz/oz/uzedu>

ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashuvini ta'minlash;

mos o'quv usullari, yordamchi texnologiyalar, didaktik materiallarni tanlash: ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun individual shug'ullanish uchun mos usullar va materiallardan foydalanish;

aloahida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini aniqlash: har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari va qiyinchiliklarini tahlil qilish;

individual, frontal, guruhli yondashuvni joriy etish: individual ta'lim dasturini alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning qobiliyatlari va o'quv sur'atlariga moslashtirish;

aniq maqsadlarni belgilash: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash;

natijalarni kuzatish: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning rivojlanib borishi va natijalarini muntazam tahlil qilish va dasturga qo'shimcha tuzatishlar kiritish;

aloahida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning motivatsiyani oshirish: bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish va uni doimiy rag'batlantirishdir.

Individual ta'lim rejasi ishlab chiqish uchun tajriba sinov ishlari Toshkent shahar Bektemir tumani 290-sonli umumta'lim maktabida 2-G sinf o'quvchisi Eshqobulov Hayotbek hamda inklyuziv ta'lim sinfi o'qituvchisi Xasanova Gulnoza ishtiroki olib borildi.

Mazkur tajriba sinov ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadal-lashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”**⁴ 2023-yildagi PQ-128-sonli qarori bilan tashkil etilgan **“Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi”** Ixtisoslashtirilgan peda-

⁴ <https://lex.uz/docs/-6438903>

gogika va inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'limi xodimlari tomonidan davom ettirildi.

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktorining **“Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida”** 2025-yil 24-martdagi 15-son buyrug'i bilan “Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yo'riqnoma”, “Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturi”, “Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual ta'lim dasturi namunasi” tasdiqlandi.

Mazkur yo'riqnomani ishlab chiqishda Yaponiyaning **“Yaponiya Kokushikan universiteti Adabiyot fakulteti”** hamda **“Yaponiya xalqaro taraqqiyot markazi”** xulosalari asosida ishlab chiqildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 1-apreldagi 04-39-1463-sonli xati bilan amaliyotga tavsiya etildi.

Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturi maketi

"TASDIQLAYMAN"

_____ viloyat (shahar) _____ tumani

_____ -sonli umumta'lim maktabi direktori

_____ "_____" _____ . (imzo)

_____ viloyat (shahar) _____ tumani _____ - sonli
umumta'lim maktabi inklyuziv ta'lim sinfi o'quvchisi uchun
20__ -20__ o'quv yili I- chorakka mo'ljallangan
individual ta'lim dasturi

Bolaning to'liq F.I.SH.: _____
Bolaning tibbiy xulosasi (tashxisi): _____
Yoshi: _____
Jinsi: _____
Sinfi: _____
Individual dasturini boshlanish vaqti: "_____" _____ 20__
Individual dasturini yakunlash vaqti: "_____" _____ 20__
Sinf rahbarining F.I.SH.: _____
Maxsus pedagog F.I.SH.: _____
Maktab amaliyotchi psixologi F.I.SH.: _____
Maktab tibbiy xodimi: F.I.SH.: _____
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning asl holati (kuzatish natijasida)

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kuzatish natijasi	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning kuchli tomonlari</u> ✓ ✓ ✓	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning zaif tomonlari</u> ✓ ✓ ✓
Maktab amaliyotchi psixologining kuzatish natijasi	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kuchli tomonlari</u> ✓ ✓ ✓	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning zaif tomonlari</u> ✓ ✓ ✓
Maxsus pedagogning kuzatish natijasida	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kuchli tomonlari</u> ✓ ✓ ✓	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning zaif tomonlari</u> ✓ ✓ ✓
Maktab tibbiyot xodimi	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kuchli tomonlari</u> ✓ ✓ ✓	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning zaif tomonlari</u> ✓ ✓ ✓

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onasini farzandidan kutayotgan o'zgarishlardagi xohish va istaklari

✓

✓

✓

Uzoq muddatli maqsad (1 yillik)

1. _____

2. _____

3. _____

..... _____

Qisqa muddatli maqsad (1 chorak)

1. _____

1.1. _____

1.2. _____

1.3. _____

..... _____

2. _____

2.1. _____

2.2. _____

2.3. _____

..... _____

3. _____

3.1. _____

3.2. _____

3.3. _____

..... _____

Aniq o'qitish usullari
1. _____ _____
1.1.1. _____
1.1.2. _____
1.1.3. _____
1.1.4. _____
..... _____
Natija <i>Bu yerga rejadagi qilingan ishning natijaviyligi qayd etiladi.</i> _____ _____ _____ _____ _____ _____ _____ _____ _____ _____ _____ _____
Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchi uchun individual ta'lim dasturini maxsus pedagog tuzadi. Maktab rahbari tasdiqlaydi.

Boshlang'ich va fan o'qituvchilari tomonidan fanlarda aniqlangan bo'shliqlarni maxsus pedagogga aytishi zarur. Maxsus pedagog umumiy mashg'ulotlarda, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlar davomida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldiradi.

Izoh: Taqdim etilgan individual ta'lim dasturi maketi ko'rinishi doim bir xil bo'ladi, mazmuni esa o'zgaradi. Maxsus pedagog tomonidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni individual holatidan, qiziqish-xususiyatidan kelib chiqib ota-onasi, amaliyotchi psixolog, tibbiyot xodimi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorligida har bir bola uchun alohida ishlab chiqiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish

1-rasm. Sinflar va laboratoriyalardagi o'quvchilar o'tirish joylarini taqsimlashda o'quvchining salomatligi holati e'tiborga olinishi

1. Evakuatsiya rejasi – bu yerda binodan xavfsiz chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi evakuatsiya rejasi joylashgan. Bu jadval binodan favqulodda holatlarda tez va xavfsiz chiqishni ta'minlash uchun muhim.

2. Doska – odatiy sinfxonalarda mavjud bo'lgan yozuv va dars o'tish uchun mo'ljallangan doska.

3. Brayl yozuvli kompyuter – ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun Brayl shriftli kompyuter va klaviaturalar.

4. Moslashtirilgan o'quv stollari – umumiy o'quvchilar uchun, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham qulay bo'lgan maxsus stollar.

5. Nogiron aravasidagi o'quvchi uchun stol – nogironlar aravasidagi o'quvchilarga moslashtirilgan maxsus stol. Stolning balandligi va kengligi o'quvchining harakatlanishiga mos kelaydi.

6. Xavfsizlik tizimi (qo'ng'iroq tugmasi) – bu yerda favqulodda holatlarda qo'ng'iroqni bosish mumkin bo'lgan xavfsizlik tugmasi mavjud.

7. Eshik va kirish uchun maxsus moslamalar – eshik hududida nogironlar uchun maxsus qulay kirish, pandus va eshik ostonasini ko'rsatadi.

9. "Chiqish" belgisi – evakuatsiya yoki favqulodda holatlarda chiqish yo'lini ko'rsatuvchi yozuv.

10. Evakuatsiyaning audio-va vizual belgilari – eshitish va ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun maxsus evakuatsiya belgisi.

11. Video kuzatuv kamerasi – sinfning xavfsizligini ta'minlash uchun o'rnatilgan kamera.

12. Tutqichlar – harakatlanishda qiyinchiliklar bo'lgan o'quvchilar uchun o'rnatilgan maxsus tutqichlar.

13. Evakuatsiya va xavfsizlik uchun audio-va vizual ma'lumot taqdimotchilari evakuatsiya jarayonini osonlashtirish uchun audio va vizual ko'rsatmalar.

14. Taktil yo'l – ko'zi ojiz bolalar uchun joylashtirilgan maxsus taktil yo'llar, bu ularning sinfda xavfsiz harakatlanishlariga yordam beradi.



Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni sinfxonaga joylashtirish

BELGILAR:

- Ko'rish yo'nalishi (ko'rish imkoniyati)
- > Og'zaki nutq masofasi (taxm.): 2,4 m gacha
-→ Shivirlash masofasi (taxm.): 0,5–1 m
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola (eshitish apparati bilan)

Dostkaga yaqin, oyna tomondan birinchi yoki ikkinchi parta – o'qituvchi va tengdoshlarni aniq ko'rish hamda eshitish uchun qulay joy.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar)ni doskaga yaqin, o'qituvchi hamda tengdoshlarini ko'rib turishi uchun qulay bo'lgan oyna tomondan hamda har qanday qatordagi birinchi va ikkinchi partada o'tirishini tavsiya qilish (*og'zaki nutq 2,4 m, shivirlash esa 0,5 - 1 m masofadan qabul qilinadi*).

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni sinfxonaga joylashtirish

BELGILAR:

- O'rta qatordagi 1–2-partalar
- Deraza tomondagi tabiiy yorug' joy
- Ko'zoynakli o'quvchi
- > Sinfga kirish-chiqish yo'li

Eng qulay joy — oson kirib-chiqish, doskani ko'rish va tabiiy yorug'likdan foydalanish imkonini beradigan joy.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar)ni sinfga osongina kirib chiqishi uchun o'rta qatordagi birinchi va ikkinchi partaga hamda ko'rish qobiliyati past o'quvchilarga tabiiy yoritish sharoiti ko'proq bo'lgan deraza tomondagi chekka stollardan joylar ajratilishi, shuningdek ko'zoynak bilan ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan o'quvchilar istagan joylariga o'tirishini tavsiya qilish.

Somatik kasalliklari bo'lgan bolalarni sinfxonaga joylashtirish

Somatik kasalliklar
(psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar) mavjud bolalarni ko'pincha jismoniy va psixologik muammolarni bir vaqtda boshdan kechirishini inobatga olib sinf eshigiga yaqin qatordagi partaga hamda



revmatizm kasalliklari bor, tez-tez angina va yuqori nafas yo'llarining o'tkir shamollashiga moyil o'quvchilarga derazadan uzoqroqqa o'tirish joylari ajratilishi.




Sinf eshigiga yaqin qator
Somatik kasalliklari bor bolalar uchun tavsiya etiladi.

Derazadan uzoqroq joy
Revmatizm, tez-tez angina va yuqori nafas yo'llari shamollashiga moyil o'quvchilar uchun tavsiya etiladi.

Somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar)i mavjud bolalarni ko'pincha jismoniy va psixologik muammolarni bir vaqtda boshdan kechirishini inobatga olib sinf eshigiga yaqin qatordagi partaga hamda revmatizm kasalliklari bor, tez-tez angina va yuqori nafas yo'llarining o'tkir shamollashiga moyil o'quvchilarga derazadan uzoqroqqa o'tirish joylari ajratilishi.

Nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarni sinfxonaga joylashtirish



Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidadagi sustlik, duduqlanish)ni o'qituvchi hamda boshqa (sog'lom) bolalarni aniq ko'rib turishini inobatga olib oyna tomondagi qatorning old qismlaridagi partalarga joylashtirish.

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalarni sinfxonaga joylashtirish

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar
(bolalar serebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi - pakanalik)

 Bolalar serebral falaji
  Skolioz
  Poliomiyelit
  Miopatiya

 Osteomiyelit
  Amputatsiya

 Bo'y o'sishining yetishmovchiligi (pakanalik)

- ✓ Maktabning birinchi qavatida joylashgan sinfda
- ✓ Mustaqil harakatlanishiga imkon berishni inobatga olib, o'rta qatordagi birinchi partaga joylashtirish (zarur holatlarda maxsus parta tatab qilinadi)
- ✓ O'quvchilarning qavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o'sishiga mebel raqami mos kelishi
- ✓ Oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o'zgartirishlariga sharoit yaratish



Mebel raqami o'sishga mos bo'lishi kerak

1	2	3	4	5
100-115 sm	115-130 sm	130-145 sm	145-160 sm	160 sm dan yuqori



Oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o'zgartirishlari

1-yarim yillik



2-yarim yillik



Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi - pakanalik)ni maktabning birinchi qavatida joylashgan sinfda, mustaqil harakatlanishiga imkon berishni inobatga olib, o'rta qatordagi birinchi partaga joylashtirish (zarur holatlarda maxsus parta talab qilinadi) qolaversa, o'quvchilarning gavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o'sishiga mebel raqami mos kelishi, oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o'zgartirishlariga sharoit yaratish.


79

Aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalarni sinfxonaga joylashtirish

 Jismoniy qiyinchiliklarga duch keladi, ammo intellektual jihatdan tengdoshlari bilan bir xil.

 O'rta qatorga joylashtirish tavsiya etiladi.

 O'rta qator — o'quvchini ham o'qituvchiga yaqin, ham tengdoshlari bilan birga faol ishtirok etishini ta'minlaydi.



Jismoniy qiyinchiliklarga duch kelishini, ammo intellektual jihatdan o'z tengdoshlari bilan bir xil ekanligini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish.

Intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni sinfxonaga joylashtirish

 Intellektual imkoniyatlari saqlangan.


 Ruhiy rivojlanishda orqada qolishlari mumkin.

 Eshikka yaqin chetki qatordagi birinchi va ikkinchi partalarga joylashtirish tavsiya etiladi.



Sinf eshigiga yaqin bo'lgan chetki qatorning birinchi va ikkinchi partalariga joylashtirish.

Xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektrida buzilishi bo'lgan bolalarni sinfxonaga joylashtirish



Eshikka yaqin qatorning devor tomonidan birinchi va ikkinchi parta.

Bunday joylashtirish:

- ✓ xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlaydi;
- ✓ ortiqcha tashqi stimulardan himoya qiladi;
- ✓ bolaga diqqatini jamlash va o'zini tinch his qilishga yordam beradi;
- ✓ o'qituvchi nazoratiga qulay bo'lgan joyda bo'ladi.

Eshikka yaqin bo'lgan qatorning devor tomonidan birinchi va ikkinchi partaga o'tirishini taklif qilish.

Diqqat yetishmasligi hamda giperaktiv bolalarni sinfxonaga joylashtirish



Bunday joylashtirish:

- ✓ o'qituvchining nazoratini osonlashtiradi;
- ✓ chalg'ituvchi omillarni kamaytiradi;
- ✓ diqqatni jamlash va qoidalariga rioya qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

DIQQATNI JAMLASHDA QIYINCHILIK

Topshiriqlarni yakunlashda qiyinchilik

Qoidalarni bajarishda qiyinchilik

Natija: O'quvchi diqqatini jamlashga, topshiriqlarni yakunlashga va sinf qoidalariga rioya qilishga osonroq odatlanadi.

Diqqat yetishmasligi hamda giperaktiv bolalarda diqqatni jamlashda, topshiriqlarni yakunlashda yoki o'rnatilgan tartib qoidalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishini inobatga olib eshikka yaqin bo'lgan qatorga joylashtirish lozim.

Mazkur tavsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”** 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli hamda “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida” nizomi, “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 25-yanvardagi 46-son hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining **“Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini jihozlashda foydalani-ladigan mebellarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talab-larini (0057-23-son sanqvan) tasdiqlash to'g'risida”** 2023-yil 7-noyabrdagi 24-sonli qaroridan kelib chiqib tayyorlangan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish yuzasidan berilgan rasmlar sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tayyorlangan bo'lib, tavsiyaviy va ko'rgazmali ahamiyatga ega. Ushbu rasmlar matnda bayon etilgan ma'lumotlarni yanada tushunarliroq ifodalash hamda amaliy tasavvur hosil qilish maqsadida keltirilgan.

Rasmlarda aks ettirilgan joylashuv, jihozlar va sinf muhiti qat'iy namunaviy shakl sifatida qabul qilinmaydi. Har bir ta'lim tashkilotida o'quvchining individual ehtiyoji, sog'lig'i, harakatlanish imkoniyati, psixologik holati, sinf xonasining sharoiti va mavjud moddiy-texnik baza inobatga olingan holda moslashtirilgan yondashuv qo'llanilishi lozim.

Shu sababli rasm ko'rinishidagi ma'lumotlar majburiy talab emas, balki tavsiyaviy-uslubiy yordamchi material sifatida foydalaniladi.

XULOSA

Mazkur **“Inklyuziv muhit”** nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida har bir bola uchun ochiq, xavfsiz, to‘siqsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta‘lim muhitini yaratishning huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatlari yoritildi.

Qo‘llanma mazmunida inklyuziv ta‘limni tashkil etish, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning ta‘lim olish huquqini ta‘minlash, ularni maktab jamoasiga moslashtirish hamda ta‘lim jarayonida muntazam qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Qo‘llanmada maktab direktorining boshqaruv mas‘uliyati, pedagogik jamoaning hamkorligi, sinf xonalari va maxsus yordam ko‘rsatish xonasini moslashtirish, o‘quvchini qabul qilish va hujjatlashtirish, individual ta‘lim dasturi asosida ishlash, maxsus pedagog va assistent-o‘qituvchi faoliyatini muvofiqlashtirish kabi masalalar amaliy nuqtai nazardan bayon etildi.

Inklyuziv ta‘limda asosiy mezon – bolani mavjud muhitga majburan moslashtirish emas, balki maktab muhitini bolaning ehtiyoji, salomatligi, rivojlanish xususiyati va imkoniyatiga mos tarzda tashkil etishdir.

Shu bois to‘siqsiz harakatlanish, xavfsiz sinf muhiti, moslashtirilgan o‘quv vositalari, differensial va korreksion yondashuvlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash hamda ota-onalar bilan hamkorlik inklyuziv ta‘lim sifatini ta‘minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

Qo‘llanmada maxsus ta‘limdan inklyuziv ta‘limga o‘tish jarayoni ham alohida yoritilib, bunda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi, ota-ona roziligi, o‘quvchining shaxsiy hujjatlari, individual ta‘lim dasturi va maktab ichki hujjatlarining to‘g‘ri

yuritilishi muhimligi ko'rsatildi. Bu jarayonda maktab direktori, direktor o'rinbosarlari, sinf rahbari, fan o'qituvchilari, maxsus pedagog, assistent-o'qituvchi, maktab psixologi, tibbiyot xodimi va ota-onalarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Inklyuziv muhitni barqaror rivojlantirish uchun ichki nazorat, o'quvchining o'zlashtirishi va ijtimoiy moslashuvini monitoring qilish, idoralararo hamkorlik, yillik tahlil va keyingi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish tizimli yo'lga qo'yilishi lozim.

Bunday yondashuv maktabda mavjud muammolarni vaqtda aniqlash, zarur yordam choralari belgilash va har bir bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatib borishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr, <https://lex.uz/docs/-5013007> ;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. PQ-4860-son, 2020-yil 13-oktabr, <https://lex.uz/docs/-5044711> ;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. PQ-241-son, 2022-yil 11-may, <https://lex.uz/docs/-6008665> ;

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. 638-son, 2021-yil 12-oktabr, <https://lex.uz/docs/-5679836> ;

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 46-son, 2024-yil 25-yanvar, <https://lex.uz/docs/-6779571> ;

6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i. Ro'yxat raqami 3765, 2026-yil 29-yanvar, <https://lex.uz/ru/docs/-8023655> ;

7. Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi. Inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maxsus pedagog xizmat xonalarini jihozlashga qo'yiladigan talablar, https://raqamlitalim.trm.uz/uploads/inclusive_resoure_file/1761196708.pdf

8. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Article 24 – Education, <https://social.desa.un.org/issues/>

disability/crpd/article-24-education ;

9. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Salamanca, 1994, <https://www.european-agency.org/sites/default/files/salamanca-statement-and-framework.pdf> ;

10. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656> ;

11. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All. Paris: UNESCO, 2020, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373724> ;

12. UNICEF. Inclusive Education: Including Children with Disabilities in Quality Learning – What Needs to Be Done? September, 2017, https://www.unicef.org/eca/sites/unicef.org.eca/files/IE_summary_accessible_220917_brief.pdf ;

13. OECD. Equity and Inclusion in Education: Finding Strength through Diversity. OECD Publishing, Paris, 2023, https://www.oecd.org/en/publications/equity-and-inclusion-in-education_e9072e21-en.html ;

14. CAST. Universal Design for Learning Guidelines. CAST, UDL Guidelines 3.0, <https://udlguidelines.cast.org/> ;

15. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. Supporting Inclusive School Leadership, <https://www.european-agency.org/activities/supporting-inclusive-school-leadership> ;

16. S.Mo'minov, M.Kasimova, O.Odiljonov, U.Xudayberdiyev "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish" o'quv uslubiy qo'llanma, Toshkent 2026-yil, <https://raqamlitalim.trm.uz/>;

17. S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova **"Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi metodisti Inklyuziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi"** nomli metodik qo'llanma, Toshkent 2022-yil.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

☎ (71) 202 09 09

✉ info@uzedu.uz

🌐 uzedu.uz

📍 100011, O'zbekiston, Toshkent, Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 2A-uy